

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»
Ijtimoiy – iqtisodiy fakul`tet dekani
_____ t.f.n. N.Dexkonov
2017 y. «____» _____

Ijtimoiy – iqtisodiy fakul`teti
5111600 –“Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi” yo`nalishi
kunduzgi bo`lim 4-kurs bitiruvchisi

Mahsudjonov Otabek Zokirjon o`g`lining

**“MA`NAVIY VA IQTISODIY TAFAKKUR UYG`UNLIGI
JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUXIM OMILI”**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**BMI rahbar: katta o`qituvchi,
B. Tillayev**

“Himoyaga tavsiya etildi”
“Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi”
kafedrasi mudiri B.A.Talapov

“____” _____ 2017 y.

Namangan- 2017

MUNDARIJA:

KIRISH	3-9
I- BOB. MA`NAVIY VA IQTISODIY TAFAKKUR UYG`UNLIGI	10-29
I.1. §. Ma`naviyat va iqtisod tushunchalarining mazmun-mohiyati	10-19
I.2. §. Iqtisodiy taraqqiyotning ma`naviy omillari	20-29
II- BOB. BOZOR IQTISODIYOTI VA DEMOKRATIK TARAQQIYOTDA MA`NAVIY-RUHIY OMILNING O`RNI	30-53
II.1. §. Ma`naviyat va iqtisodiy taraqqiyotning o`zbek modelida aks etishi	30-44
II.2. §. Bozor iqtisodiyotida ma`naviy-ma`rifiy asoslar - tadbirkor ma`naviyati	45-53
XULOSA VA TAVSIYALAR	54-59
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YXATI.	60-64	
ILovalar	65-66

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi Mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritganidan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy-ma`rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo`lga kiritildi.

O`zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy davlat, demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishni o`z oldiga pirovard maqsad qilib qo`ydi. Shuning uchun, “Ertangi kunni ko`zlab amalga oshirilayotgan mana shunday bunyodkorlik ishlarimizga kuch-quvvat berayotgan ko`p qirrali ma`naviy hayotimizning yanada yuksalishi va uning davlat siyosati darajasiga ko`tarilishi bugun o`z hosili va samarasini bermoqda.”¹

Bugun Respublikamiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o`zgarishlar sodir bo`lib, bozor iqtisodiyoti munosabatlari tizimi turmush tarzimizga va faoliyatimizga hamda, fuqarolik jamiyatini barpo etish dasturimizga aylanmoqda. Ayniqsa, ma`naviy-madaniy sohada, umuminsoniy qadriyatlarni tan olgan holda, milliy tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklashga, Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish kabi buyuk vazifalarga yo`g`rilgan, milliy istiqlol g`oyasini vatandoshlarimiz dunyoqarashiga aylantirishga qaratilgan jarayonlar kechmoqda. Bu yutuqlarga Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurish Kontseptsiyasi nazariy asos bo`lib xizmat qilib kelmoqda. Bu kontseptsiya millatimizning o`ziga xos urfodatlari, an`analari, qadriyatlari va mentaliteti hamda, mamlakatimiz taraqqiyot darajalarini qat`iy hisobga olish bilan “O`zbek modeli”ni o`zida aks ettirgan. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev o`zining “Taqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak” nomli asarida shunday deydi: “Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “O`zbek modeli”ni amalga oshirish va zamonaviy davlat barpo etish borasidagi strategik tamoyillarga biz o`z ishimizda doimo suyanamiz. Bu tamoyillar O`zbekistonda bundan buyon ham siyosiy,

¹Каримов И.А. Ининг хукуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т. 14. -Т.: Ўзбекистон, 2006.-Б. 280.

iqtisodiy va ijtimoiy o`zgarishlarni ta`minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi.”¹

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavzuning dolzarbligi qo`yidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, ma`naviy tafakkurning jamiyat va shaxs hayotiga ta`siri muammolari keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan keng ko`lamda tadqiq etilmoqda.

Ikkinchidan, milliy va umuminsoniy ma`naviy tafakkurlarga, qadriyatlarga bag`ishlangan adabiyotlarda, ma`lum darajada sistemalashgan ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilsa-da, ularda aynan qaysi umuminsoniy ma`naviy qadriyatlar, boyliklar, milliy ma`naviy qadriyatlarning, madaniyatning funksional xususiyatlariga ta`sir qilishi, uning mexanizmlari, ijobiy va salbiy oqibatlari aniq tahlil etilmagan. Bu esa, milliy va umuminsoniy ma`naviy tafakkur dialektikasini yoritib berish, ya`ni ularni bir-biri bilan uzviy bog`liqligini tadqiq etishni kun tartibiga qo`ymoqda.

Uchinchidan, mustaqillik ma`naviy tafakkuri o`zining funksiyalari orqali milliy taraqqiyotga keng qamrovli ta`sir etmoqda. Ushbu ilmiy-nazariy, ijtimoiy-amaliy ahamiyatga ega bo`lgan muammoni konkret ijtimoiy makon va tarixiy zamon xususiyatlari bilan bog`lab o`rganish zaruriyati hamda, ma`naviy tafakkur tizimini falsafiy tahlil qilish nihoyatda dolzarbligini ko`rsatmoqda.

O`zbekiston sobiq sho`rolar totalitarizmi sharoitida yashab kelganligi bois, uni tugatib, demokratik jamiyat qurish tomon qadam qo`yish juda murakkab masala edi. Chunki, totalitarizm nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotga, shuningdek, ma`naviy-ma`rifiy hayotga, insonlarning dunyoqarashiga o`zining ta`sirini o`tkazgan edi. Shuning uchun ham demokratik jamiyat qurishning “O`zbek modeli”da jamiyatni tubdan o`zgartirishga xizmat qiluvchi asosiy tayanch manba sifatida yangi ma`naviyat va dunyoqarashni shakllantirish belgilandi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. -Т.: Ўзбекистон, 2017.-Б.5.

Islom Abdug`anievich Karimov 1992 yildayoq, “Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so`ngra ma`naviyat to`g`risida o`ylash kerak, deganlar haq bo`lmasalar kerak. Ma`naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir,”¹ - deb ta`kidlagan edi. Ana shu ko`rsatmaga muvofiq ma`naviyatni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda unga tayanish davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Xususan Islom Abdug`anievich Karimovning 1994 yil 23 aprelda Respublikamizda “Ma`naviyat va ma`rifat jamoatchilik markazini tuzishi to`g`risida”, 1996 yil 9 sentyabrda esa “Ma`naviyat va ma`rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to`g`risida”, 1999 yil 3 sentyabrdagi “Respublika ma`naviyat va ma`rifat kengashini qo`llab quvvatlash to`g`risida”gi farmonlari va 1998 yil 24 iyuldagagi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma`naviy va ma`rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”, maxsus qarori qabul qilindi. Islom Abdug`anievich Karimov O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma`ruzasida O`zbekistonning XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi ustuvor yo`nilishlarini belgilab berar ekan, “Ikkinchi ustuvor yo`nalish-jamiyat ma`naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat”² ligini ta`kidlab o`tdi.

Ishning o`rganilish darajasi O`zbekiston Respublikasida mustaqillikni qo`lga kiritish va Respublikamizning ma`naviy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy texnikaviy aloqalarini o`rganish juda muhim ahamiyatga ega bo`lib, ko`plab olimlar bu masalani ilmiy jihatdan o`rganishga harakat qilmoqdalar. Eng avvalo I.A.Karimov³ hamda, O`zbekiston Respublikasining Prezidenti

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б.72- 73.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. -Т.: Ўзбекистон, 1999.-Б. 23.

³ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иктисад, сиёсат, мағкура. Т.1. -Т.: Ўзбекистон, 1996; Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. -Т.: Ўзбекистон, 1996; Ватан саждагоҳ каби мукаддасидир. Т.3. -Т.: Ўзбекистон, 1996; Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. -Т.: Ўзбекистон, 1996; Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т.5. -Т.: Ўзбекистон, 1997; Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998; Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Ўзбекистон, 1998; Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. -Т.: Ўзбекистон, 1999; Биз келажакни ўз қўнимиз билан курамиз. Т.7. -Т.: Ўзбекистон, 1999; Осиёда тинчлик ва ҳамкорлиники мустаҳкамлаш йўлида. Т.14. -Т.: Ўзбекистон, 2006, O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Т.: O`zbekiston, 2011; va boshqalar.

Sh.M.Mirziyoev¹larning barcha asarlari mustaqillik va uni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan ustuvor yo`nalishlardan iborat. Shuningdek, ushbu mavzu yuzasidan Respublikamizda bir qancha monografiya, risola va asarlar chop etilgan. Erkaev. A, Imomnazarov M, Yusupov. E, Abdullaev A, Mahmudov T, Otamurotov S, Yo`ldoshev Q, Sharifxo`jaev M, Qodirova Z, A.Qodirov² kabi etuk olimlar hamda, mavzu bo`yicha, Islom Karimovning “Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch” asaridagi kontseptual g`oyalari bilan boyitib hamda, unga “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” kontseptsiyasini singdirgan holda so`nggi yillarda olimlar, adabiyotshunoslar va ma`naviyat masalalari bilan shug`ullanuvchi mutaxassislar tomonidan chop etilgan kitoblar va maqolalardan material sifatida keng foydalanildi.

Ishning maqsad va vazifalari Mustaqilligimizni mustahkamlashda bugungi kunda xususan yoshlarning ruhan baquvvat bo`lishiga, o`z Vatani va xalqi manfaatlarining fidoiyları bo`lib etishishlarida va yot mafkuralarga qarshi kurashlarida muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham Islom Abdug`anievich Karimov “Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari” kontseptsiyasiga yozgan so`z boshlarida: “Oldimizga qo`ygan oljanob maqsad-muddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo`lish, g`oyaviy bo`shliq paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaslik, begona va yot g`oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda.”³ Haqiqatan ham ma`naviyat qanchalik yuksak bo`lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik,

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2016; Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрг тараққиётни ва халқ фарновонлигининг гарови. -Т.: Ўзбекистон, 2017; Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундаклик қоидаси бўлиши керак. -Т.: Ўзбекистон, 2017; Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2017;

² Абдуллаев А. Маънавият ва иқтисодий тафаккур. -Т.: Маънавият, 1999; Шарифхўжаев М. Маънавият асослари. -Т.: 2005; Отамуротов С. Маънавият асослари. -Т.: 2002; Qodirova Z.R. Yangicha iqtisodiy tafakkur va xalqaro munosabatlar. // Xalqaro munosabatlar. 2004; №2. Йўлдошев К. Иқтисод илмий асослари. А.: 1995; Абдуллаев А. Маънавият ва иқтисодий тафаккур. -Т.: Маънавият, 1999; Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Т.: Университет, 1998; Махмудов. Т. Мустакиллик ва маънавият.-Т.: Шарқ, 2001; Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. -Т.: Маънавият, 1997; Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. -Т.: Шарқ, 1996; Имомназаров М. Миллый маънавиятимиз назариясига чизгилар. -Т.: Шарқ, 1999; Қодиров А. Маънавиятининг иқтисодий тамойиллари. -Т.: Маънавият, 1999;

³ Миллый истиқтол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.- Т.: Ўзбекистон, 2000. –Б.5.

xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o`rin qolmaydi, uning o`rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg`ulari yuksak darajaga ko`tariladi, o`zaro munosabatlarda samimiylilik, birdamlik, mehr-oqibat, e`tiqod, imon, ma`suliyat va boshqa bir qator ijobjiy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o`rin olib boraveradi.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, informatsion inqilob, globallashuv jarayonlari, jahon maydonlarini ta`sir o`tkazish maqsadida bo`lib olishga intilish tabora kuch olayotgan sharoitda Islom Abdug`anievich Karimov aytganidek: “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma`naviy sog`lom o`sishi, balki ularning eng zamonaviy intelektual bilimlarga ega bo`lgan, uyg`un rivojlangan insonlar bo`lib, XXI asr talablarga to`liq javob beradigan barkamol avlod bo`lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`yganmiz.”

Vazifalari:

- mustaqillik davri ma`naviy tafakkuri tizimini shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;
- milliy istiqlol g`oyasining mustaqillik ma`naviy tafakkurini shakllantirishdagi nazariy va amaliy ahamiyatini ko`rsatish;
- mustaqillik sharoitida ma`naviy tafakkurning funktsiyalarini tadqiq etish.

Ana shu o`ta muhim vazifalarni hal qilishimiz uchun mustaqillik ma`naviyatini shakllantirish va milliy istiqlol g`oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir. Bu o`z navbatida biz qo`lga kiritgan istiqlolning ma`no va mazmuni, milliy o`zligimizni to`la anglashimizga, milliy g`urur va iftixor tuyg`ularimizni mustahkamlashimizga, Vatan va millat istiqboli uchun har birimizning ma`sulligimizni tushunib etishimizga o`zining katta ta`sirini ko`rsatadi.

Islom Abdug`anievich Karimov ta`kidlaganidek, “Jamiyatni ma`naviy yangilashdan bosh maqsad- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik

kabi ko`p-ko`p muhim masalalardan iborat.”¹ Bu ulkan vazifalarni ma`naviyatimizni milliy istiqlol g`oyalari bilan boyitib borsakgina amalga oshirishimiz mumkin bo`ladi.

Shu ma`noda ham iqtisodni ma`naviyat bilan o`zaro uyg`unligini yoshlarimizga o`rgatishga ehtiyoj o`sib bormoqda va bu borada oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ayniqsa, mukammal o`quv qo`llanmalarni va ular asosida darsliklarni yaratish ana shunday dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu vazifaning murakkabligi shundaki, “Ma`naviyat asoslari” mustaqilligimizning mevasi sifatida paydo bo`ldi. Mustaqilligimizgacha, bu tushuncha mustaqil ravishda o`zining aniq tasnifiga ega bo`lmagan, aynan unga bag`ishlangan ilmiy asarlar ham yaratilmagan. Bu mamlakatimizning tubdan yangilash va mustaqil taraqqiyotimizga xizmat qiluvchi ma`naviyatni shakllantirishning ehtiyoji sifatida paydo bo`ldi.

Ishning ob`ekti jamiyat hayotidagi ma`naviy o`zgarishlar, ma`naviy tafakkur, uning tizimi va o`ziga xos xususiyatlaridir. Bitiruv malakaviy ish **predmeti** inson va jamiyat ma`naviy hayoti, mustaqillik va bozor iqtisodiyotiga o`tishning ma`naviy tafakkur rivojlanishiga ta`siri, jamiyatning yangilanishi bilan bog`liq ijtimoiy-ma`naviy negizlaridir.

Ishning nazariy-metodologik asoslari. 1) O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; 2) O`zbekiston Oliy Majlisi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari; 3) Prezident Sh.M.Mirziyoevning farmonlar, asarlar, nutq, suhbat, ma`ruzalarida bildirilgan ma`naviyat, iqtisod, tafakkur, mafkura masalalariga doir kontseptual qarashlari; 4) ijtimoiy taraqqiyot, ma`naviy tafakkurning rivojlanishi to`g`risidagi olimlarning ilmiy qarashlari muhim nazariy asos bo`ldi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishdagi ilmiy xulosalardan moddiy va ma`naviy tafakkur, milliy va umuminsoniy ma`naviy tafakkur, mustaqillik ma`naviy madaniyati tushunchalarining bir-birlari bilan dialektik bog`liq ekanligi

¹Каримов.И. А. Миллий истиколол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.-Т.: Ўзбекистон 2000.-Б. 23-24.

to`g`risidagi fikr-mulohazalardan faylasuflar, sotsiologlar, politologlar, tarixchilar va boshqa olimlar o`z tadqiqotlarida foydalanishlari mumkin.

Ishning ahamiyati shundaki, uning natijalaridan mavzuda tadqiq etilgan nazariy va amaliy xulosalar, ilmiy-uslubiy tavsiyalardan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish borasidagi faoliyatlarda, jamiyatimiz yangilanishiga kuchli ta`sir etayotgan ma`naviy-ma`rifiy islohotlarni yanada rivojlantirishda foydalanishlari mumkin.

Ishning tuzilishi Kirish, 2 bob, 4 paragrif, xulosa hamda, foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat.

I.BOB. MA`NAVIY VA IQTISODIY TAFAKKUR UYG`UNLIGI

I.1. § Ma`naviyat va iqtisod tushunchalarining mazmun-mohiyati

“Ma`naviyat”ning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag`ishlanib Respublikamiz ziyorilari o`rtasida qizg`in munozaralar olib borilmoqda. Bunga sabab ma`naviyatning ko`p qirrali tushuncha ekanligidir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko`zga tashlanuvchi zoxiriylari va yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag`ishlab ko`plab maqola va mulohazalar e`lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

Ularda ma`naviyat, uning ma`no-mazmuni, hayotimizdagi o`rni va ahamiyati haqida fikrlar bildirilmoqda. Lekin aksariyat hollarda ma`naviyat o`zi nima, degan savolga aniq va lo`nda javob topish qiyin. To`g`ri, “Ma`naviyat” tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko`plab ta`riflarni keltirish mumkin. Umuman, o`zida juda chuqur va keng qamrovli ma`no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi muallif o`zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e`tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta`rif va tavsiflar berib kelayotganliklarini ko`ramiz. Unga ham bir tabiiy hol sifatida qaramoq lozim. Bu masala bo`yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarda, ta`riflarda har qaysi muallifning o`ziga xos dunyoqarashi, mushohida tarzi o`z ifodasini topgan. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, keyingi yillarda mazkur mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o`quv qo`llanmalar, lug`atlarda “Ma`naviyat” tushunchasi va uning tamoyillariga o`ziga xos izoh va ta`riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma`naviyat” tushunchasi keng ma`noda jamiyat hayotidagi g`oyaviy, mafkuraviy, ma`rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o`zida to`la mujassam etgan ijtimoiy-ma`naviy hodisa ekanligidir.¹

¹Каримов И.А.Юксак маънавият- енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008, -Б. 18-20.

Aslida ma`naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma`naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya`ni yuksak ma`naviyat egasi bo`la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko`rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma`naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag`ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta`minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma`naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo`lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma`naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma`naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo`lganligi uchun ham, yuqorida ta`kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

Ma`naviyat ko`proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma`noda ma`naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo`q. Ma`naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal echishga bashar qudrati etmaydi. Shunday ekan, “Ma`naviyat” tushunchasiga bir yo`la mukammal ta`rif berish murakkab hisoblanadi.

Unga ta`rif berishda Islom Abdug`anievich Karimovning nazariy qarashlariga, milliy qadriyatlarimizni, tarixiy va madaniy-ma`naviy merosimizni tiklash borasidagi amaliy faoliyatlariga tayanishimiz, uni o`zimiz uchun dasturulamal qilib olishimiz maqsadga muvofiq. Islom Abdug`anievich Karimov “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch” asarida insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog`langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o`lchab bo`lmaydigan o`rin tutishligini uqtirib: “Ma`naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg`ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon – e`tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”¹ deb ta`riflagan edilar. Bu ta`rifda inson faoliyatining barcha ma`naviy qirralari qamrab

¹Каримов И.А.Юксак маънавият- енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008, -Б. 19.

olingan bo`lib, biz bundan buyon ma`naviyat haqida so`z yuritganimizda unga metodologik asos sifatida tayanamiz.

Mamlakatimiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritgunga qadar ilmiy adabiyotlarda “Ma`naviyat” mustaqil ilmiy tushuncha sifatida qo`llanilmagan edi. Shu bois bu tushunchani chuqurroq o`rganishga bo`lgan qiziqish ayniqsa Islom Abdug`anievich Karimovning unga bo`lgan e`tiboridan keyin oshib ketdi.

Bir qator olimlarimiz anjumanlarda qilgan ma`ruzalarida “Ma`naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiytas`ir qiluvchi tizim yoki ma`naviyat- insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig`indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir”, deb ta`rif berib kelmoqdalar. A.Erkaevning fikricha, “Ma`naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya`ni insonning mehr-muruvvat,adolat, to`g`rilik, sofkillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go`zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko`plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir.”¹ M.Imomnazarov dastlab “Ma`naviyat inson qalbidagi ilohiy nur...”,² -deb yozgan bo`lsa, keyinchalik “Ma`naviyat – inson qalbida, ko`ngil ko`zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta`rif darhaqiqat, so`fiyona ramziy ta`rifdir, zotan boshqacha ta`rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo`yadi”,³ -deb yozadi.

E. Yusupov insonda mavjud bo`ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiylarigina ma`naviyat bo`la olishini ko`rsatib: “Ma`naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e`tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir – biri bilan uzviy bog`langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiytas`ir etadigan mushtarak tizimdir”,⁴ -deb ta`riflaydi.

¹ Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. -Т.: Маънавият, 1997, -Б.27.

² Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. -Т.: Шарқ, 1996,-Б. 6.

³ Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. -Т.: Шарқ, 1999, -Б.14.

⁴ Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Т.: Университет, 1998,-Б.34.

T. Mahmudov “Ma`naviyat – insoning ma`lum darajadagi jismoniy, aqliy, ahloqiy va ruhiy balog`ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir”,¹ -degan ta`rifni beradi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasida ham ma`naviyatning ko`pgina qirralari o`z ifodasini topgan va mualliflar o`zlarining nuqtai-nazarlarini bildirganlar, ammo ularda inson salohiyatini o`stirish masalasi e`tibordan chetda qolganligi ko`rinadi. Hali yana ko`plab olimlarimiz ma`naviyat tushunchasiga o`z munosabatlarini bildiradilar va ana shu bildirilgan turli fikrlar asosida umumiyluk mukammal ta`rif shakllanadi, degan umiddamiz.

Bugunga qadar ma`naviyat tushunchasiga mukammal ta`rif shakllanmaganligiga sabab uning keng qamrovli, murakkab va ayni vaqtida “sodda” tushuncha ekanligida. Ma`naviyat ko`proq insonning ichki, botiniy, yashirin dunyosini aks ettirishidir. Inson ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to`la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengizdan qancha gavhar olsangiz tugamagani singari inson ichki dunyosi ham tubsiz va o`zini rang-barang tarzda namoyon etadi. Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borsangiz, shunchalik turlitumanlik bilan toblanib, o`zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etadi. Mana shuning uchun ham ma`naviyat tushunchasiga mukammal, har taraflama to`liq ta`rif berish mushkulroq. Ammo Respublikamiz olimlari tomonidan “Ma`naviyat” tushunchasiga berilayotgan ta`riflarni va uning inson, millat, xalq, jamiyat hayotida tutgan o`rni to`g`risida ilgari surilayotgan g`oyalalarini umumlashtirgan holatda ma`lum bir umumlashgan xulosa chiqarish mumkin bo`ladi.

Shunday qilib ma`naviyat – insonning ruhiyatini, uning o`z-o`zini anglashi, didi, farosati,adolat bilan razilikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go`zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g`oyalarni qo`ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, - deb ta`rif berish o`rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta`rifni eng oxirgi, qiyomiga etgan, mukammal deb, aytishimiz mumkin emas.

¹Махмудов Т. Мустакиллик ва маънавият.-Т.: Шарқ, 2001. -Б.9.

I.A. Karimov aytganidek, ma`naviyat – taqdirining ehsoni emas. Ma`naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo`l bilan mehnat qilishi kerak.¹

Ma`naviyat inson tug`ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar o`giti, Vatan tuyg`usi, bu hayotning ba`zida achchiq, ba`zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo`lib shakllanadi. Uning qaror topishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o`rinni egallaydi.

Islom Abdug`anievich Karimov ta`kidlaganidek, har qaysi millatning o`ziga xos ma`naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o`rni va ta`siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg`ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag`rida shakllanadi. Hayotga qadam tashlayotgan bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma`naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezbilik, olivjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qadr topadi.

Har bir oila farzandining ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo`lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta`sirida ma`naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo`la boshlaydi. Mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsalarni tushunib, anglay boshlaydi. Ota-onasiga, bobo va momolariga mehr va hurmati, o`zini o`rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi. Agar ota-ona, katta o`g`il-qizlar o`zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida kichiklarga o`rnak bo`lish o`rniga qo`pol muomila qiladigan bo`lsa, bu holat bola ma`naviy olamining shakllanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Vaqtin soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk odad sifatida namoyon bo`ladi. Oiladagi ma`naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag`ritosh bo`lib voyaga etishi mumkin. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo`l qo`ymaslik uchun avvalo har qaysi

¹Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиклол, иктисад, сиёсат, мафкура. -Т.: Ўзбекистон, 1993.-Б.74.

xonadondagi ma`naviy iqlimni o`zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiqdir.

Farzandga mehr qo`yish, ularning qornini to`q, ustini but qilish o`z yo`li bilan, lekin farzandlarimizni yoshlik chog`idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma`naviyat asosida voyaga etkazish nafaqat oila uchun, balki jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Farzand tarbiyasiga e`tibor bermaslik nafaqat ota-onalar, butun bir oila, butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ko`pgina hayotiy misollarda ko`rish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati ularning yorug` kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu-saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, iyomon-e`tiqodli farzand nafaqat ota-onanining, oilaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.¹

Barcha fanlarda bo`lganidek, ma`naviyatning ham mustaqil predmeti mavjuddir. Uning predmeti inson va jamiyat ma`naviy hayoti, maqsadi esa komil inson – iyomon e`tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma`naviyatini shakllantirish va jamiyat ma`naviy salohiyatini rivojlantirishdir.

Ana shu keng qamrovli vazifalardan ko`rinib turibdiki, inson kamoloti va jamiyatning yuksak darajaga ko`tarilishi ma`naviyatni rivojlantirishga bog`liq bo`ladi.

Ma`naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o`z oilasi, millati va Vataniga bo`lgan munosabatlarida namoyon bo`ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof – muhit, milliy, diniy qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Odam ota – onadan tug`iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlari, ya`ni ma`naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta`sirida shakllanadi. Insonning ma`naviy olami asosan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo`lsa ham, u o`z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga

¹Каримов.И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.52-56.

nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, iymon, vijdon, xalollik, mehnatsevarlik, milliy va insoniy g'urur tuyg'usi, burch va mas'uliyatni his qilishi qanchalik kuchli va yuqori bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo'lishiga olib keladi.

Xuddi shuning uchun ham Islom Karimov Oliy Majlisning birinchi chaqiriq, birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat – ma'rifatli insonning ikki qanotidir,"¹ - deb ko'rsatgan edi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma'naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma'naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat bo'lmanidek, jamiyatsiz ma'naviyat ham rivojlanishi mumkin emas.

"Iqtisodiyot" so'zining lug'aviy ma'nosi – sarf – harajatda ehtiyoitkorlik, tejamkorlik mazmunini berib, mazkur tushunchaga adabiyotlarda turlicha ta'riflar berib kelinmoqda. Shulardan ba'zilarini havola etamiz: "Iqtisodiyot odamlar faoliyatining o'zları iste'mol qiladigan ne'matlarni ishlab chiqarish, uning natijalarini o'zlashtirish, mavjud moddiy va mehnat imkoniyatlardan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munsabatlarning juda muhim tomonidir. Iqtisodiyot qiziq bir olam bo'lib, turli kasbdagi, millat va jinsdagi, qarashlar va ruhiyatidagi, turli mintaqa va qit'alardagi odamlarning tirikchilik vositalarini yaratish va iste'mol qilish bo'yicha amalga oshiradigan aloqalari va bog'liqlarining ifodasidir,"² deyiladi. Boshqa bir ta'rifda esa: "Iqtisodiyot deganda kishilar hayotini ta'minlaydigan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va uning iste'moli bilan bog'liq barcha sohalarning yig'indisi va ayni jarayonda ishtirok etayotgan odamlarning faoliyati, ular o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar, munosabatlarning yaxlit

¹Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий – ижтимоий, иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари.- Т.: Ўзбекистон, 1995. -Б.46.

²Йўлдошев К., Муфтойдинов К. Иқтисод илмий асослари. -Андижон, 1995. -Б.8-9.

birligini tushunmoq kerak,”¹-deyilgan. Berilayotgan ta`riflarning turli-tumanligi mualliflarning fan o`rganayotgan masalaning u yoki bu jihatiga ko`proq e`tibor berilganligi bilan bog`liq. Iqtisodiyotga berilgan ta`riflar qanchalik turli tuman bo`lmashin, mazkur ta`riflarni birlashtiruvchi va umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Ya`ni berilgan ta`riflarning barchasida ham, insonlar faoliyati, insonning moddiy noz-ne`matga bo`lgan talab va ehtiyoji, uni qondirish uchun mahsulotlarni ishlab chiqarishi, ularning taqsimoti masalalarini ifodalaydi. Iqtisodiyotga inson hayoti va moddiy ne`matlar ishlab chiqarish faoliyati bilan uyg`un holda qarash to`g`ri bo`ladi.

Kishilar hamisha va har doim oziq-ovqat, kiyim – kechak, turar joy, ishlab chiqarish qurollari va vositalariga muhtoj. Hayvonot dunyosi ham oziq-ovqatga muhtojlik sezadi. Inson ishlab chiqarish orqali o`z ehtiyojlarini qondiradi, hayvonlar esa hech nima ishlab chiqarmaydilar. Insonlarning moddiy ishlab chiqarish jarayonlari va bu borada yuzaga keladigan munosabatlarni iqtisodiyot fani o`rganadi. Abu Ali ibn Sino va Abu Abdulloh al Xorazimiylar fanlarni tasnif qilar ekanlar, iqtisodiyotni xo`jalik yuritish sohasidagi fanlar qatoriga kiritganlar.

Iqtisodiyotning ham o`z ob`ektiv qonun-qoidalari, sir-asrорlari borki, ular bilan hisoblashmaslikning hech bir iloji yo`q. Har doim iqtisod o`z yo`lidan boraveradi, uni to`xtatish mumkin emas. Qaysi bir mamlakat, davlat iqtisod qonunlarini nazar – pisand qilmasa, u boshi berk ko`chaga kirib qolishi muqarardir.

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng, u qaysi yo`ldan borishi kerak, degan masala oldimizda ko`ndalang bo`lib turdi. Islom Karimov mustaqillikka erishishimizning birinchi kunlaridanoq jahondagi turli mamlakatlarning tajribalarini chuqur va har tomonlama o`rganib, mustaqil O`zbekistonning bundan buyongi taraqqiyoti yo`li bozor iqtisodiyoti munosabatlari yo`lidan borish ekanligiga qat`iy ishonch hosil etdi. Bu xaqida “Biz,-deb aytgan edi Islom Abdug`anievich Karimov, - o`z mustaqilligimizni qo`lga kiritib, yangi taraqqiyot yo`liga qadam qo`yganimizdan so`ng xalqimizning hoxish-irodasi, asriy orzu-tilishlariga tayangan holda, sho`ro davridan og`ir meros bo`lib qolgan ma`muriy-

¹Абдуллаев А. Маънавият ва иқтисодий тафаккур. -Т.: Маънавият, 1999. -Б.7.

buyruqbozlik tizimini tubdan isloh qilish, uning o'rnida mohiyat e'tibori bilan butunlay yangi-erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga azmu qaror qildik.

“...bu maqsadga erishish uchun qanday strategik yo'l, islohotlarning qanday shakl va usuli ma'qul ekani xaqida ko'p o'yladik taraqqiy topgan davlatlar misolida o'zini oqlagan ilg'or tajribalarni o'rgandik.”¹

Ayni mana shu yo'l ko'p millatli O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning ma'naviyati, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an`analari va madaniyatining qayta tiklanishini, insonning shaxs sifatida ma'naviy – axloqiy kamol topishini ta'minlashi mumkin. Ushbu tanlangan yo'lning mohiyati O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ishlab chiqqan va ilgari surgan bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilida o'z ifodasini topgan. Ularda Respublika aholisining turmush tarzi, faoliyati hisobga olindi. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatimizda emas, endilikda boshqa mamlakatlarda ham tan olinmoqda.

Mazkur tamoyillar quyidagilar:

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan holi qilish, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritishda mafkuraviy manfaatlar nuqtai nazardan emas, balki taraqqiyot manfaatlaridan qaralmog'i zarur;

Ikkinchidan, mamlakatda o'tkaziladigan islohotlarda davlat bosh islohotchi bo'lmog'i zarur. Islohotlarning boshida davlat turmasa parokandalik vujudga keladi. Davlat islohotlar vazifalarini bir tizimga solib, ularni amalga oshirishda etakchilik qilib turadi;

Uchinchidan, islohotlarni amalga oshirishda qonun ustivorligiga qat'ian amal qilinishi lozim. Mamlakat hayotida va islohotlarni amalga oshirishda qonun ustivorligiga amal qilinishi, turli to'siqlarning yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi va taraqqiyot uchun keng yo'l ochib beradi;

To'rtinchidan, bozor munosabatlari bir kun yoki bir ikki yilda shakllanadigan jarayon emas, u ma'lum bir davr ichida vujudga keladi. Mana shu

¹Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.102.

davr ichida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish zarur bo`ladi. Ijtimoiy himoya-aholini iqtisodiy qiyinchilikka tushib qolmasligining muhim sharti hisoblanadi. Shuning bilan birga ijtimoiy himoya iqtisodiy qiyinchilik sharoitida turli ziddiyatlar kelib chiqishining oldini oladi.

Beshinchidan, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdir. Bu tamoyilga binoan islohotlarni bir “zarb” bilan emas, balki asta sekin, evalyutsion yo`l bilan amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu bozor munosabatlarining barqarorligini ta`minlashga xizmat qiladi.

Islom Abdug`anievich Karimov ishlab chiqqan mazkur tamoyillar zaminida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ma`naviy barkamollik zarurligi o`z ifodasini topdi. Ya`ni islohotlar islohotlar uchun emas, balki inson uchun, uning farovonligini ta`minlashga hizmat qilishi belgilangan. Insonlarda va jamiyatda ma`naviyat taraqqiy qilsagina, islohotlarni amalga oshirish ham engillashib boraveradi. Shuning uchun Islom Abdug`anievich Karimov ma`naviyatni ko`tarish masalasini islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishining muhim sharti sifatida belgilab bergen. U “Bozor munosabatlariga o`tish hayotiy etuklik va sabr matonatni sinovdan o`tkazuvchi o`ziga xos imtihondir. Bunda ma`naviy bo`shliqqa yoki ko`ngilga kelgan ishni qilaverishga mutlaqo yo`l qo`yib bo`lmaydi. Shu sababli biz ma`naviy- ruhiy tiklanish va poklanish muommolariga alohida ahamiyat beryapmiz,”¹ - deb ko`rsatgan edi.

Ma`naviy-ruhiy inqiroz mavjud bo`lgan joyda, iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo`lmasligi bu haqiqatdir. Ma`naviyati yuksak inson, vaqtinchalik mavjud bo`lgan iqtisodiy qiyinchiliklar oldida dovdirab qolmaydi, u istiqbol bilan harakat qiladi, farzandlari, millati va mamlakatning porloq kelajagi yo`lida samarali mehnat qilishni o`zining turmush tarzining asosiy tamoyiliga aylantira oladi.

Bu O`zbekistonda bozor munosabatlariga o`tishda ma`naviy omilning iqtisodiy taraqqiyotga ta`siri borasida olib borilgan yo`lning mazmunini tashkil qiladi.

¹Каримов И.А Ўзбекистон иқтисодий ислоҳатларни чуқурлаштириш йўлида.-Т.: Ўзбекистон, 1995.-Б. 41.

I.2.§. Iqtisodiy taraqqiyotning ma`naviy omillari

Mamlakatimizda kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, ko`p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirish, iqtisodiyotda tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, ya`ni iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishgina emas, insonlarda, ayniqsa, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhim rol o`ynaydi. Chunki iqtisodiy tafakkur jamiyat a`zolarining dunyoqarashini shakllantirishda mustaqil fikr yuritish, vaziyatga ko`ra qaror qabul qilishga, o`rganishiga asos bo`ladi.

Shaxs faoliyati, uning oldiga qo`ygan maqsadi, kasbiga doir muammo va masalalarni echish mazmuniga, uning vosita va amallariga ko`ra tafakkurning u yoki bu qirralari asosiy o`rin tutadi va u amaliy tafakkur, mantiqiy tafakkur, tahliliy tafakkur, intuitiv tafakkur, abstrakt tafakkur, iqtisodiy tafakkur, kasbiy tafakkur va hokazolar sifatida tavsiflanadi.

Bizni ko`proq tafakkurni iqtisodiy va pedagogik jihatdan o`rganish qiziqtiradi. Uning boshqa jihatlarini boshqa fanlar o`rganadi. Boshqacha aytganda, uni iqtisodiy jihatdan tarbiyalovchi funksiyasi, uni iqtisodiy fikrlovchi insonni shakllantirishini o`rganish nazarda tutiladi.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o`tilar ekan, sifat jihatdan tubdan farq qiluvchi, yangicha iqtisodiy fikrlovchi, yangi tipdagi mutaxassisni shakllanitirish lozim bo`ldi. “Buni hisobga olgan holda mamlakatimizda kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o`zgartirish iqtisodiyotni isloh qilishning strategik maqsadlaridan biri sifatida qo`yildi.”¹

Yangicha tipdagi iqtisodiy fikrlash iqtisodiyotdagi muammolarni prinsipial jihatdan yangicha, sifat jihatdan totalitar buyruqbozlikka asoslangan tizimdan farqli tarzda echishni ob`yektiv zarurligiga asoslanadi.

“Iqtisodiy holatning mohiyatini, iqtisodiy rivojlanishning qonun-qoidalarini, o`ziga xos tomonlarini tushunib yashash, bu iqtisodiy nazariyalarni bilish va

¹Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1999. -Б.197.

ulardan samarali foydalanish qobiliyati iqtisodiy tafakkurni vujudga keltiradi”, - deyishadi bir guruh olimlar.¹

Ularning fikricha iqtisodiy tafakkurning mohiyati va xususiyatlariga qarab, uning uch xil turini ko`rsatib o`tish mumkin:

1. Oddiy kuzatish va anglash tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tafakkur.
2. Chuqur bilimlar va g`oyalarga asoslangan iqtisodiy tafakkur.
3. Talaba muammolar, murakkab jarayonlar tahlili bilan bog`liq iqtisodiy tafakkur.

Yangicha iqtisodiy tafakkur esa yana bir tadqiqotchi olim tomonidan quyidagicha ifodalanadi: “Yangicha iqtisodiy tafakkur, bizning nazarimizga ko`ra, uchta asosga ega. Birinchidan, insонning bozor sharoitida muhim bo`lgan shaxsiy fazilatlari. Ikkinchidan, texnika taraqqiyotining zamonaviy darajasi, xususan moddiy ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari nisbati. Uchinchidan, davrimizga xos ijtimoiy jarayonlarning har bir mamlakat ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining o`ziga xos nisbati va ijtimoiy turmushning globallashuvi bilan tavsiflanadi.”²

Bizningcha iqtisodiy tafakkurni quyidagicha ta`riflash haqiqatga yaqinroq. Iqtisodiy tafakkur - bu iqtisodiy fikrlash, bilimning natijasidir.

Iqtisodiy tafakkur chegarani his qilish, meyorni bilish, hisob-kitob qilish orqali xohish, istak bilan real imkoniyatni taqqoslab qaror qabul qilishda ifodalanadi.

Iqtisodiy tafakkur 1) iqtisodiy bilim, qarashlar, g`oyalar, ma`naviy yaxlitligi sifatida; 2) iqtisodiy qarashlar g`oyalarning asosi; 3) odamlar tomonidan o`rganilgan iqtisodiy bilimlargina emas, balki iqtisodiy munosabatlar, aloqalarda namoyon bo`ladi.

Iqtisodiy tafakkurni shakllanishi dastlab, shaxsiy tajribalar, og`ir jismoniy mehnatni engillashtirishga, cheklangan resurslardan samaraliroq foydalanishga,

¹Дўстжонов Т., Мирхамидов М., Ҳасанов С. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг долзарб муаммолари. Ўқув қўлланма -Т.: Молия иқтисод. -Б.216.

²Qodirova Z.R. Yangicha iqtisodiy tafakkur va xalqaro munosabatlar. // Xalqaro munosabatlar. 2004. №2,-B. 84.

turmush darajasini ko`tarishga bo`lgan intilishlar bilan bog`liq bo`lsa, keyinchalik u falsafiy, so`ngra diniy qarashlar bilan bog`liq holda rivojlandi.

Iqtisodiy qarashlar va g`oyalarning rivojlanishi, iqtisodiy maktablar shakllanishi va iqtisodiy fanlar vujudga kelishi bilan iqtisodiy tafakkur yangi bosqichga ko`tarildi. Yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirishning bosh manbai esa - bu fan va uning taraqqiyotidir.

Insonning ishlab chiqarish faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki o`zining ma`naviy jihatlariga ham ega. Iqtisodiyot bilan ma`naviyat rivojiga bir xil katta ahamiyat bergen jamiyat o`zining yirik ijtimoiy ziddiyatlarisiz va qarama – qarshiliklarsiz barqaror taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi.

Iqtisodiyot va ma`naviyat uyg`unligi, hamoxangligi ta`minlangan mamlakatda rivojlanish, taraqqiyotda ko`zlangan maqsadga erishish oson kechadi. Tarix saboqlaridan shu narsa aniq va ravshanki, qaysi bir davlat yoki jamiyat asosiy e`tiborni faqat moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va ko`paytirishga qaratib, uni yaratuvchi insonning ma`naviy ehtiyojlarini qondirishni o`ylamasa, u albatta tanazzul va inqirozga yuz tutadi. Iqtisodiy rivojlanish faqat ma`naviy rivojlanish bor bo`lgan joydagina muvaffaqiyat qozonadi. Bundan ko`rinadiki iqtisod va ma`naviyat o`zaro chambarchas bog`liq.

Ma`naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma`naviyat yuksak bosqichga ko`tarila olmaydi. “Ma`naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o`zaro ta`sirlanib rivojlanib boradi. Milliy kamolot yo`li mana shu”,¹ - deb ta`kidlagan edi Islom Abdug`anievich Karimov. O`z-o`zidan ma`lumki, jamiyat taraqqiyotida iqtisodiyot va ma`naviyat munosabatlari, ularning o`zaro aloqadorliklari va bir-biriga ta`siri masalasi to`g`ri hal qilinmog`i lozim. Iqtisod va ma`naviyat o`zaro chambarchas bog`liq. Oldin iqtisodiy masalalarni, vazifalarni hal qilib, sung ma`naviyat bilan shug`ullanish lozim deguvchilar qattiq adashadi. Bunday yo`l, usul xato va noto`g`ridir.

¹Каримов И.А Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. -Т.: Ўзбекистон, 1995.-Б. 47.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligini Islom Karimov bozor munosabatlariga o'tishning asosiy tamoyillaridan biri ekanligini qayta-qayta uqtirib kelganlar. Bundan ayrim kishilar bizga mafkura, siyosat kerak emas, degan noto`g'ri xulosaga kelib ijtimoiy fanlarga nisbatan noto`g'ri munosabat bildira boshlagan davrlar ham bo'ldi. Bu no`noq, uzoqni ko`ra bilmaydigan odamlar fikri. Ma`naviyatsiz jamiyat bo`lishi mumkin emas. Har qanday iqtisodiy masalalarni ma'lum ma`naviyat va ma`rifat sohiblari hal etadilar. Mamlakat qanchalik iqtisodiy rivojlangan bo`lsa, bu mamlakatda ma`naviyat va ma`rifat shuncha yuksak bo`ladi . Yuksak ma`naviyat va ma`rifatga ega bo`lgan mamlakatning iqtisodiy kuch-qudrati ham yuqori bo`ladi . Demakki, ma`naviyati va ma`rifati yuksak inson yurt, mamlakat, xalqi oldida o`ziga yuklatilgan mas`uliyatni chuqr his etadi. Shu yurt, mamlakat, xalq uchun halol, fidokorona yaratuvchilik, bunyodkorlik mehnati bilan uning yuksaklikka parvozi uchun uz hissasini qushishi kerakligini teran his etadi. Shunday qilib, yuksak ma`naviyat va ma`rifat yuksak iqtisod, yuksak iqtisod esa yuksak ma`naviyat va ma`rifat bilan bog`lanib ketadi. Ayrim kishilar erkin bozor iqtisodi sharoitida ma`naviy-ma`rifiy va axloqiy qadriyatlarning qiymati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanadi, ma`naviy qashshoqlik avj oladi, deb da`vo qiladilar. Erkin bozor iqtisodiyoti bilan ma`naviyatni bunday qarama-qarshi qo`yish mutlaqo o`rinsiz, aksincha yuqorida aytganimizdek ular bir-birlarini to`ldiradi, chunki faqat ma`naviy sog`lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo`lishi mumkin.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o`nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish ma`naviy o`nglanish, ma`naviy poklanish, ma`naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg`un holda boradi. Mana shuning uchun ham jamiyat ma`naviyatini yanada yuksaltirish XXI asrda ustivor yo`nalishlardan biri ekanligi ikkinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi sessiyasida belgilab qo`yildi. I.A. Karimov “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz” kitobida ta`kidlaganidek, har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, umumiyl gaplar bilan emas, amaliy ishlar bilan ma`naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazida bo`lishi

shart.¹ Demak, ma`naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o`zaro ta`sirlanib, rivojlanib boradi. Hozirda iqtisodiy islohotlarning yangi, yuqori bosqichiga o`tayotgan ekanmiz, demak ishlab chiqarish tarmoqlari ishga tushib, iqtisodiy yuksalish yuz beradi. Bu esa fan, madaniyat va ma`naviyat taraqqiyotiga ijobjiy ta`sir qiladi. Xususan, bunga kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni amalga oshirish borasidagi ishlar yaqqol misol bo`la oladi.

Keyingi yillarda Islom Karimov ma`naviyat - iqtisodiy rivojlanishning ham asosidir, degan yangi fikrni o`rtaga tashladi. Sho`rolar zamonida ma`naviyatning roliga bunchalik katta e`tibor berilmagan edi. Umuman, biz uzoq yillar davomida ma`naviyat, madaniyatni iqtisoddan keyingi o`rinlarga qo`yishga odatlanib qolgan edik. Endilikda ma`naviyat birinchi o`ringa chiqdi. Ma`naviyatning birinchi o`ringa qo`yilishiga ikkita sabab bor: Birinchidan, biz Yaponiya kabi yuksak rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot omillarini o`rganib, faqat yuksak ma`naviyatgina yuksak iqtisodiy rivojlanishni ta`minlashi mumkinligiga amin bo`ldik. Ikkinchidan, respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni orqaga surayotgan, unga to`sinq bo`layotgan sabablardan eng muhimi - ma`naviyatsizlik ekanini anglab etdik. Bu haqiqat achchiq bo`lsa ham, ammo uni tan olmasdan ilojimiz yo`q. Iqtisod, ma`naviyat va ma`rifatning o`zaro chambarchas bog`liq ekanligini bizning ota-bobolarimiz to`g`ri tushunib etganlar.

Ma`naviyati yuksak kishi birovning haqiga, davlat, jamoa mulkiga hiyonat qilmaydi, sadoqatli bo`ladi , Vatani, el-u, yurti, xalqi uchun jonini fido etishga o`zini ayamaydi. Buning aksi o`laroq, ma`naviyati qashshoq kishilar nopol, firibgar, poraxo`r, o`g`ri, qallob, Vatan va millat manfaatlariga befarq qaraydi.

Kelajakda O`zbekiston yuksak darajada rivojlangan iqtisodiyoti bilangina emas, balki bilimdon, ma`naviyati yetuk farzandlari bilan ham aholini hayratga solishi va unga yuz tutishi lozim. Bunga esa iqtisod va ma`naviyat, ma`rifatni birga, o`zaro mutanosib, mushtarak rivojlanishiga ahamiyat berganimizdagina erishishimiz mumkin.

¹Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. -Т.: Ўзбекистон, 2000.-Б.25.

Islom Karimov iqtisod va ma`naviyatning o`zaro uyg`unligi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillaridan biri ekanligini ko`rsatib shunday degan edi: "...insonga xos orzu- intilishlarni ro`yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo`lgan moddiy va ma`naviy olamni bamisol parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak o`rinli bo`ladi. Qachonki ana shu ikki muhim omil o`zaro uyg`unlashsa, tom ma`nodagi qo`sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o`sish - o`zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo`ladi."¹

Ko`rinadiki, moddiy va ma`naviy hayot tamoyillari bir birini inkor etmaydi, aksincha, o`zaro bog`lanib bir-birini to`ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o`z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog`liqlik, uyg`unlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobjiy natijalarga erisha oladi. Mamlakatimizda islohotlarni amalga oshirish jarayonida iqtisod va ma`naviyatning o`zaro uyg`unligi asos qilib olinganligi hamda, ahamiyati haqida Islom Karimov: "Bizning islohotlar davomida nainki moddiy farovonlikka ayni paytda ma`naviy yuksalishga ham erishishni o`zimiz uchun asosiy mezon deb bilganimiz umumiy taraqqiyotimizda bir tomonga og`ib ketmaslik, jamiyat hayotida suv bilan havodek zarur bo`lgan muvozanat va barqarorlikni ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat moddiy boylik ortidan quvish – xalqimizning azaliy orzu intilishlariga ham, insoniylik bilan yo`g`rilgan milliy qadriyatlarimiz mohiyatlariga ham to`g`ri kelmas edi. Shu bois islohotlarni amalga oshirishda ma`naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir birini quvvatlab, o`zaro ta`sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o`zimiz uchun dasturil amal sifatida belgilab oldik,"² - degan edi. Iqtisodiy munosabatlarda ma`naviyat masalalari, xususan insonparvarlik talablari va me`yorlari etarlicha xisobga olinmasa, texnokratik qarashlar ustunlik qilsa, ishlab chiqarish o`sishi, iqtisodiy rivojlanish bo`lishiga qaramay jamiyatda insoniy axloqiy munosabatlar tanazzulga uchraydi, insonlar o`rtasida begonalashish

¹Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008, -Б.67.

²Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008, -Б.107.

kuchayadi. Bu esa oxir – oqibat natijada ijtimoiy – iqtisodiy tanazzulga olib kelishi mumkin.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda iqtisodiyot va ma`naviyatning o`zaro dialektik bog`liqligi va bir-biriga ta`siri qonuniyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ma`naviy hayotnng uyg`un holda rivojlanib borishiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

“Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiy o`nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma`naviy poklanish, ma`naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg`un ravishda rivojlanib borishini doimo davlatimiz va jamiyatimizning e`tibor markaziga qo`yib kelmoqdamiz.”¹- deb ta`kidlaydi O`zbekiston Respublikasining bиринчи Prezidenti Islom Karimov.

“Ma`naviyatga qarab, malakaga qarab ishlab chiqarish holati belgilanadi. Yuqori malaka faqat yuqori ma`naviyat bor joyda bo`ladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot sifati tannarxi va bahosi malakaga bog`liq bo`lganda, ma`naviyat uning asosida bo`ladi.”¹

Biz maqsad qilib olgan tsivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari faqat yuksak ma`naviyat va ma`rifat negizida, yuksak axloqiylik va vatanparvarlik negizlarida bunyod etilishi mumkin. Buni hammamiz teran anglab olishimiz kerak.

Ma`naviyat va ma`rifatli, iymonli kishilargina o`zining halol-pok mehnati bilan boylik yaratuvchi, izlanuvchi, insofli, mehnatsevar, tadbirkor, el-yurt dardiga malham bo`luvchi haqiqiy vatanparvar bo`ladi. Shunday fuqarolarga ega bo`lgan mamlakat, jamiyat iqtisodiy taraqqiyot pog`onalarida uzlusiz yuqoriga ko`tarilib boradi.

Ma`naviyatli va ma`rifatli kishilarda yaxshilikka moyillik va yomonlikdan tiyilish hissi kuchli bo`ladi. Demakki, turli yomonliklardan tiyilish hissi jamiyatda osoyishtalik va farovonlikka olib keladi.

Kelajak yoshlarniki bo`lgani uchun ham mamlakatimizda ularning ma`rifatli, tadbirkor, zukko va o`z kasbining ustasi, iymon-e`tiqodli, zamon

¹Каримов И. А. Юқсан маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008.-Б.69.

¹Кодиров А. Маънавиятининг иқтисодий тамойиллари. Т.: Маънавият, 1999.-Б. 28.

talablari darajasida etuk, ma`naviy barkamol bo`lishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berilmoqda. Ilm-fan, ta`lim – tarbiya, hunar egallashni izchillik bilan amalga oshirish iqtidorli yoshlarga ochilgan keng imkoniyatdir. Bu boradagi olib borilgan ish Oliy Majlisning IX sessiyasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risidagi” qonunini qabul qilinganligidan hamda, bu masala ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasida ustivor yo`nalishlardan biri qilib belgilanganligida o`z ifodasini topgan.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek, “...bizning kelajagimiz, mamlakat kelajagi o`rnimizga kim kelishiga bog`liq. Bugun yoshlارимиз qanday qadriyatlar sari intilayotgani, qanday orzu-niyat va o`y-hayollar bilan yashayotganiga aslo loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. Ota-on, ustoz-murabbiy, etakchi –rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatishga haqqimiz yo`q, chunki ma`naviyat sohasida bo`shliq bo`lmaydi. Biz farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo`lgan ta`sirlardan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon – atrofda yuz berayotgan voqeа – hodisalarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikirlaydigan, iymон-е`tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim.”¹

O`zbekiston taraqqiyot va yuksalish uchun katta imkoniyatlarga ega mamlakat, uning qulay geografik joylashuvi, xilma-xil tabiiy boyliklari yurtimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olish imkoniyatini beradi. Mustaqillik yillarda O`zbekiston o`zining shu qulay imkoniyatlaridan xalqimizning hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan hamkorlikni dunyoning taraqqiy etgan ko`plab mamlakatlari bilan keng ko`lamda olib bormoqda. Bunday hamkorliklarning amalga oshirilishi albatta mustaqillik sharofati tufayli. Sovet tuzumi davrida Respublikada etishtirilayotgan jami tabiiy boyliklar, xom ashyo va boshqa mahsulotlar qayoqqa ketayotganini, qaysi mamlakatga pullanayotganligi va u qaerga sarflanayotganligini markazdagilardan o`zga hech kim bilmasdi. O`zbekistonning chet mamlakatlar bilan mustaqil holda aloqa qilishini ko`z

¹Каримов. И.А. Инсон манбаатлари устиворлигини таъминлаш-барча ислоҳот ва ўзгаришларимизнинг бош максадидир. // Халқ сўзи , 2008. 9-февраль.

oldimizga ham keltira olmas edik, har qanday aloqalarimiz faqatgina markazning ruxsati bilan, amalgalash oshirilardi. Ajdodlarimiz orzusi bo`lgan mustaqillikning qo`lga kiritilishi xalqimizga o`z taraqqiyot yo`lini mustaqil tanlab olish, jahon hamjamiyati bilan barcha sohalarda hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatini yaratib berdi. O`zbekiston mustaqillika erishgandan keyin xorijiy davlatlar bilan o`zining erkin, hech narsa bilan cheklab qo`yilmagan, to`la teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi iqtisodiy siyosatini yurita boshladi. O`zimiz yaratayotgan boyliklarga o`zimiz ega bo`ldik.

Bugungi osmono`par binolarimiz, o`nlab qurilgan ko`priklarimiz, minglab yoshlarni o`z bag`riga olgan kollej-litseylarimiz, xullas, barcha bunyodkorlik ishlarimiz ana shu milliy boyliklarimiz orqasidandir.

Shunday imkoniyatlarni yaratib bergen istiqlolni sharaflab, mustaqillikni mustahkamlash bugungi kunda har birimizning oldimizda turgan eng muhim vazifalardandir. Jamiyatimizdagи illatlarga barham berish orqali, mamlakatimizdagи muommolarni hal etish mumkin. Agar har kim o`z vazifasiga sidqidildan, halol yondoshsa, mas`uliyat bilan ish yuritsa, albatta barcha muommolar hal bo`ladi. Shu o`rinda shuni aytish kerakki, O`zbekiston iqtisodini mahalliy kadrlar bilan ta`minlash maqsadida istiqlolning dastlabki kunlaridanoq davlat dasturi ishlab chiqildi. Sovet davrida mavjud kadrlarni saqlab qolish, ularga shart-sharoitlar yaratib berish bilan birga ta`lim tizimida 1997 yil “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bugun mamlakatimiz bo`ylab 300 dan ziyod yo`nalishlardan iborat kasb-hunar kollejlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu yo`nalishlardagi kasb-xunar kollejlarni bitirib chiqqan ko`plab mahalliy kadrlar mamlakatimiz korxonalarida, qishloq xo`jaligi tarmoqlarida mustaqil mehnat fa`oliyatini davom etdirmoqdalar.

Milliy kadrlar tayyorlash va ularni ish bilan ta`minlash davlatimiz oldidagi iqtisodiy masalalardan. Mamlakatda milliy kadrlarga berilayotgan diqqat-e`tiborning mohiyati shundaki, ushbu dastur orqali xalq xo`jaligining barcha tarmoqlarini mahalliy kadrlar bilan ta`minlash, mamlakat aholisini ish o`rinlari

bilan band etish va yoshlarning kelgusida jamiyatda o`z o`rnini topishlari uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iborat.

Demak, jamiyatda yuksak marralar ko`zlanar ekan uning iqtisodiy va ma`naviy omillariga teng ko`z bilan qarash, ularning birortasini kamsitish, past baho berish mumkin emas. Aksincha, ma`naviyat va iqtisodning uyg`unligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili.

II.BOB. BOZOR IQTISODIYOTI VA DEMOKRATIK TARAQQIYOTDA MA`NAVIY-RUHIY OMILNING O`RNI

II.1. §. Ma`naviyat va iqtisodiy taraqqiyotning o`zbek modelida aks etishi

Vatanimiz bugun qanday jamiyat barpo etilmoqda, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy asoslari nimalardan iborat bo`ladi? Islom Karimov “O`zbekiston XXI-asrga intilmoqda” kitobida bu savollarga to`liq javob berilgan .Bu oljanob maqsadlar jamiyat hayoti barcha sohalarga daxldor ko`pdan-ko`p siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz? Barpo etilayotgan jamiyatning ma`no –mohiyati, afzalliklari haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo bu mustaqillik bergen ulkan imkoniyat ekanini xis etamiz. Mustaqillik o`z taqdirimizni o`zimiz belgilash imkonini beradi. Istiqlol tufayli tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda, an`analarimiz, muqaddas dinimiz qayta tiklandi. Mamlakatimiz sarxadlari va suverenitetini himoya qilishga qodir bo`lgan yangi milliy armiya to`zildi,davlat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlovchi mutlaqo yangi asosdagi tizim yaratildi.

Istiqlol yillarida erishgan eng katta yutug`imiz umumiylar xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqorolararo totuvlikdir. Bu davrda Vatanimiz manfaatlariga mos tashqi siyosat ishlab chiqildi hamda, dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari nufizli xalqaro tashkilotlari bilan iqtisodiy aloqalar o`rnatildi. Eng muhimi istiqlol tufayli odamlarning tafakkuri va hayotga munosabati o`zgarib bormoqda. Ularning davlatimiz buyuk kelajagiga bo`lgan qat`iy ishonch kuchaymoqda.

Bularning hammasi yangi jamiyat barpo etishday oljanob va mas`uliyatli ishda xalqimiz tayanadigan asosiy yutuqlaridir. Ammo pirovard maqsadlarga etish uchun mamlakatimizda boshlangan islohatlarni izchil davom ettirish, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot yo`lida yanada faol va fidoiy bo`lishimiz lozim.

Milliy g`oya xalqimizni ana shu maqsad atrofida, ulug` ishlarga safarbar etadigan, bizga tayanch va ko`mak bo`ladigan ma`naviy mezondir. Ma`naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o`zligini

chuqurroq anglash, milly g`oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo`l qo`ymaslik – bu boradagi asosiy vazifalarimizdir .Ushbu vazifalar milliy g`oyani ma`naviy sohada namoyon bo`lishining asosiy tamoyillarini belgilaydi. Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida, eng avvalo ma`naviy qadriyatlarni to`g`ri baholay olishni, soxta qadriyatlardan yoki tarixan, eskirgan o`zidagi bunyodkorlik va ijobjiy salohiyatni sarflab bo`lgan qadriyatlardan haqiqiy hayotbaxsh qadriyatni ajrata olishni o`rganish lozim. Biror bir qadriyatga baho berilar ekan, uning mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, e`tiqodiy va axloqiy asoslarini qay darajada mustahkamlay olishi, xalqimizning umumjaxon ijtimoiy taraqqiyotining faol sub`ektiga aylantirishga xizmat qila olishi bosh mezon bo`lishi kerak.

Mazkur tamoyillar milliy g`oyamizning tarkibiy unsurlaridir. Zero milliy istiqlol g`oyasi butun jamiyat, butun millat, butun o`zbekistonliklar uchun xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarimizni baholaganda ularni milliy g`oyaga nechog`lik mos ekanini nazarda tutamiz. Shu bois yuqorida zikr etilgan mezon va tamoyildan foydalanim, madaniy merosimizni va bugun ayrim yot mafkuraviy paligonlar tomonidan targ`ib etilayotgan ba`zi g`oyalarning tahlil etsak, ularda insoning erkin rivojiga, o`z orzu –intilishlariga mos holda, xalqimizning psixalogiyasi maqsad – muddaolari, Vatan manfatlari va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos kelmaydigan unsurlarni, g`oyalarni yaxshi payqab olamiz. Yangi jamiyatni barpo etishda ma`naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim.

•Birinchidan, yurtdoshlarimizning ma`navi yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish. Ularning kuch va soloxiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag`rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish.

Bu ma`naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo`lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlar insoniylik g`oyalari asosida rivojlantirish demakdir.

• Ikkinchidan, turli qarash va fikirga ega bo`lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va xarakatlarning o`ziga xos orzu istaklarini uyg`unlashtiruvchi g`oyalar-Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq forovonligi-barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga erishish. Bu ko`ppartiyaviylik va pluralizm tamoyilariga amalda rioya qilgan xolda milliy hamjixatlikni yanada mustahkamlash demakdir.

• Uchunchidan, ota –bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamotchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish. Tokiy, bu din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma`naviy hayotimizning ham asosi, muxtasar aytganda, Ollohdan doimo qalbimizda, yuragimizda ekani yurtdoshlarimiz ongiga singib borsin.

SHu ma`noda, buyuk ajdodimiz Baxouddin Naqishbandning “Diling – Ollohdan, qo`ling-mehnatda bo`lsin” degan xikmati biz uchun muxim hayotiy tamoyil bo`lib qolaveradi.

• To`rtinchidan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ma`lum tarbiya tizimining zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish.

• Beshinchidan, O`zbekistonda yashayotgan barcha millat va ellatlarning qadriyatları, tili, madaniyati, diniy e`tiqodi, urf-odati va an`analarini xurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko`maklashish.

Bu ko`p millatli mamlakatimiz fuqorolari orasida, ularni milliy va diniy mansubligidan qat`iy nazar, hamjixatlik va birodarlik tuyg`ularini kuchaytirish, ”Shu aziz Vatan – barchamizniki” g`oyasining amalga oshirishini ta`minlash demakdir.U mamlakatimiz xalqlarining, millatidan, dinidan, tilidan qat`iy nazar, Vatan ravnaqi yo`lida, yangni jamiyat barpo etish yo`lida birlashtiradigan milliy omildir. Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz? degan savolga, yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, shunday javob berish mumkin.

1.Biz barpo etayotgan jamiyatning moddiy-iqtisodiy negizini ko`pmulkchilikka tayangan, ijtimoiy yo`naltirilgan, ichki muvozanatga erishgan bozor munosabatlari tashkil etadi.

2.U, siyosiy tuzumiga ko`ra, ko`p partiyaviylik, fikrlar xilma-xilligiga

tayangan, qonunning hamma uchun bir xilda ekani va ustivorligi ta`minlangan demokratik, huquqiy davlat bo`ladi.

3.Ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, davlat va ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlarning o`zaro ta`siriga ko`ra, fuqorolik jamiyati quriladi. Unda barcha ijtimoiy guruhlar, qatlamlar o`rtasida ijtimoiy hamkorlik, barcha millatlar va elatlar o`rtasida tinch-totuvlik, umummilliy mushtaraklik yanada mustaxkamlanadi.

4.Ma`naviy xususiyatliriga ko`ra, bu jamiyat o`zida milliylikni umuminsoniylik bilan uyg`unlashtirgan, barcha ilg`or yangiliklarga, yutuqlarga ochiq, milliy mahdudlik, millatchilik yoki milliy nomukammallik tuyg`ularidan xoli, fikirlovchi va ijtimoiy mas`ul fuqorolarning erkin jamiyati bo`ladi.

5.Demak biz bozor iqtisodiyotiga, qonun ustivorligiga, ijtimoiy hamkorlikka, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining uyg`unligiga asoslangan demokratik, yangiliklarga ochiq, ma`rifatli fuqoroviy jamiyat barpo etmoqdamiz.

Taraqqiyotning o`zbek modeli. Milliy g`oyaning hayotbaxshligi taraqqiyotning o`zbek modelini amalga oshirishda yaqqol namoyon bo`ladi. O`zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati. Bu zaminda tabiiy boyliklar, unumdon erlar, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma`naviy saloxiyat mavjud. Eng muximi, bu diyorda mehnatsevar va iste`dodli xalq yashaydi. O`zbekiston – o`ziga xos mustaqil taraqqiyot yo`lini tanlab olgan davlat. Bu yo`l jaxonda “O`zbek modeli” deb tan olingan rivojlanish yo`lidir. Uning ratsianal mag`azi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion–tadrijiy ravishda isloq etishini nazarda tutadi. O`zbek modelining asoschisi Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan taraqqiyot yo`lining ko`pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma`nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modelidar. Shu sababdan, u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma`naviyatni, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

O`zbek modeli tushunchasi, avvalo, O`zbekistoning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo`lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo`naltirgan eng umumiylaz nazarilar xulosalar va mo`ljallar bilan davlatning

belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatning mushtarakligini anglatadi (davlat siyosati deganda, xokimyatning xar uchala bo`g`ini faoliyati nazarda tutilmoqda). Modelning amaliy tomoni ham bir necha yo`nalishlarga ega.

- -islohotlarning huquqiy bazasini yaratish va mustaxkamlashga qaratilgan siyosat;
- -davlatning nazariy xulosalarni, mo`ljallarni amalga oshirish yuzasidan tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizimini o`zida aks ettirgan farmonlar, qarorlar, maqsadli dasturlarni (shu jumladan investitsiya dasturlarini) qabul qilishi;
- -amaldagi investitsiya siyosati, soliq siyosati moliya-kredit siyosati, iqtisodiy-tarkibiy siyosat, fond bozorini, qimmatli qog`ozlar bozorini shakillantirish va rivojlantirish, iste`mol bozoriga ta`sir ko`rsatish va xakazo;
- -farmonlar va huqumat qarorlari mohiyatini odamlarga tug`ri etkazish, ularni birlashtirish ularda eski tuzum inertsiyasini engishga qodir irodani shakillantirish borasida targ`ibiy-tashviquy va tarbiyaviy ishlarni yo`lga qo`yish.

Xush, o`zbek modelining asosiy ustivor xususiyatlari nimalardan iborat O`zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat iqtisodiy taraqqiyot masalalarini, balki milliy davlatchilik asoslarini, milliy qadriyatlarini, xalqning o`zligi, g`ururini qayta tiklash, rivojlantirishi, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini tubdan yangilashi va mustaqillik g`oyalarini amalga oshirish uchun mutloqa yangicha fikrlab, yangicha ish yuritadigan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalarni ham xal etishi lozim edi.

O`zbekiston taraqqiyotining milliy modeli Islom Karimov asarlarida har tomonlama chuqur asoslab berilgan. Bu modelning asosiy ma`no-mazmunini taraqqiyotning quyidagi besh tamoyili tashkil etadi:

1. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, iqtisodiyot biror mafkuraga bo`ysundirilishi mumkin emas.
2. Davlat bosh islohotchi bo`lishi kerak.
3. Qonun ustuvorligi ta`minlanishi lozim.
4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritiladi.
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, ya`ni tadrijiy yo`l bilan o`tiladi.

Yurtimizdagi barcha islohotlar uchun mas’uliyatni, ularni muvaffaqiyatl o’tkazish, huquqiy asoslarini yaratishni davlat o’z zimmasiga olgan. Taraqqiyotning besh tamoyilni izohlaydigan bo’lsak, ma’naviyatning iqtisod bilan o’zaro uyg`unligini yaqqol ko’rishimiz mumkin:

Birinchidan, iqtisodiyot siyosiy manfaatlarga bo’ysundirilganda, u barbob bo’ladi. Buni sho’rolar misolida ko’rishimiz mumkun. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilishi, unga taziyq o’tkazish darajasiga ko’tarilmasligi kerak. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlar har qanday mafkuradan holi bo’lishi lozim. Bozorning qoidasi shunday: kimning mahsuloti yaxshiroq va arzonroq bo’lsa, o’sha mahsulotga talab hammadan ko’ra ko’proq bo’ladi. Bu erda hech qanday siyosat yoki mafkura o’z ta’sirini o’tkaza olmaydi.

Ikkinchidan, Islom Karimovning “Davlat asosiy islohotchi bo’lishi zarur. U islohotlarning ustivor yo’nalishlarni belgilab berishi, o’zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar va konservatorlarning qarshiligini bartaraf etishi shart”¹- degan fikri o’ta ahamiyatlidir. Mustaqil O’zbekiston boshqariladigan ma’rifatli bozor iqtisodiyotiga o’tayotir. Unga faqat davlatning boshqaruvchilik va islohotchilik kuchiga tayanib o’tish mumkin. Chunki, yangi boshqaruv tizimlarining mustahkamlash, ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojini ta’minlash, narx-navolarni tartibga solish, soliq tizimini mustahkamlash, bank-kredit muammolarini echish, millatlararo totuvlikni kafolatlash davlatning muhim vazifasidir. O’tish davrida davlatning bosh islohotchilagini saqlash va ta’minlash faqat yutuqlarga olib keladi, xolos.

Uchinchidan, Islom Karimov o’zining “Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmang” risolasida hammaning qonunga itoatkor bo’lishi, qonunning hamma narsadan ustun turishini ta’kidlab o’tgan. Biz demokratik jamiyat sari borar ekanmiz, u erda qonun ustivorligini unutmasligimiz, qonun oldida hamma teng, uni bo’zishga hech kim haqli emasligini bilishimiz lozim.

¹Каримов.И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон, 1998. –Б.102.

Qonunning ustivorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan ham kelib chiqadi.

Demokratik yo'l bilan qabul qilingan Respublika Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga riosa qilish va ularni hurmat qilish har bir fuqaroning burchiga aylanishi lozim. Bozor munosabatlari sharoitida, bozor xo'jaligining o'zi ham huquqiy jihatdan mustahkamlanmasa, tartibsizliklarning kelib chiqishiga olib keladi. U huquqiy norma va qoidalarga tayanishi kerak. Bozor munosabatlariga o'tgan rivojlangan mamlakatlarda qonunchilikka riosa qilinishi taminlangan. Qonunchilik va unga riosa qilish bozor munosabatlari ishtirokchilarning ma'naviyatini aniqlabkina qolmay, ularning o'rnatilgan tartib-intizom, qoidalarga amal qilishini ta'minlashi bilan ham ahamiyatlidir.

Ma'rifiy dunyodagi bozor – bu eng avvalo qonunga hurmat demakdir.

To'rtinchidan, respublikamizda ko'p sonli kishilar turmush darajasining pastligi totalitar iqtisodiy tuzumdan qolgan meros. Biz tanlagan yo'lning o'ziga xosligi shundaki, faqat aholi nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish orqali bozor munosabatlariga o'tilishidir.

Islom Abdug'anievich Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" ma'ruzalarida ham XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash islohotlarning barcha bosqichida asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qilishi alohida ta'kidlanganligi diqqatga molikdir. Unda kelgusida ham davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hajmi va miqdorini ko'paytirish bilan bir vaqtda yordamga muhtoj bo'lgan kishilar va oilalar ijtimoiy yordam olishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov doimo islohot o'tkazishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yib bo'lmasligi, uni ehtiyojkorlik bilan sekin-asta o'tkazish zarurligini ta'kidlab kelganlar. Shuni aytish kerakki, islohot biz uchun mutlaqo yangi iqtisodiy tizimni, bozor tizimini yaratishi kerak. Yangilik hech qachon birdaniga yuzaga kelmaydi, har doim iqtisodga bosqichma-bosqich borilgan. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi ham shu narsadan holi emas.

Islom Abdug`anievich Karimov ishlab chiqqan mazkur tamoyillar zaminida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ma`naviy barkamollik zarurligi o`z ifodasini topdi. Ya`ni islohotlar islohotlar uchun emas, balki inson uchun, uning farovonligini ta`minlashga xizmat qilishi belgilangan. Insonlarda va jamiyatda ma`naviyat taraqqiy qilsagina, islohotlarni amalga oshirish ham engillashib boraveradi. Shuning uchun Islom Abdug`anievich Karimov ma`naviyatni ko`tarish masalasini islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshishining muhim sharti sifatida belgilab bergen. U “Bozor munosabatlariga o`tish hayotiy yetuklik va sabr matonatni sinovdan o`tkazuvchi o`ziga xos imtihondir. Bunda ma`naviy bo`shliqqa yoki ko`ngilga kelgan ishni qilaverishga mutlaqo yo`l qo`yib bo`lmaydi. Shu sababli biz ma`naviy-ruhiy tiklanish va poklanish muommolariga alohida ahamiyat beryapmiz,”¹ - deb ko`rsatgan edi.

Ma`naviy-ruhiy inqiroz mavjud bo`lgan joyda, iqtisodiy taraqqiyotga erishib bo`lmasligi bu haqiqatdir. Ma`naviyati yuksak inson, vaqtinchalik mavjud bo`lgan iqtisodiy qiyinchiliklar oldida dovdirab qolmaydi, u istiqbol bilan harakat qiladi, farzandlari, millati va mamlakatning porloq kelajagi yo`lida samarali mehnat qilishni o`zining turmush tarzining asosiy tamoyiliga aylantira oladi.

Bu O`zbekistonda bozor munosabatlariga o`tishda ma`naviy omilning iqtisodiy taraqqiyotga ta`siri borasida olib borilgan yo`lning mazmunini tashkil qiladi.

Iqtisodiyot sohasida milliy boyliklarni tobora ko`paytiradigan, mamlakatimiz mustaqilligi va aholining munosib turmush kechirishini, mehnat qilishini ta`minlab, barqaror va yuksak sur`atlarda rivojlana oladigan iqtisodiyotni barpo etish belgilandi. Buning uchun quyidaga vazifalarni amalga oshirish lozim edi:

-ijtimoiy jihatdan yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish; tadbirkorlikka erkinlik berish, uni rag`batlantirish; boshqaruvning iqtisodiy usullariga o`tish, boqimandalikni batamom tugatish;

¹Каримов И.А Ўзбекистон иқтисодий ислоатларни чуқурлаштириш йўлида.-Т.: Ўзбекистон,1995.-Б. 141.

-mulk egalari huquqlarini himoya qilish; barcha mulkchilik shakllari huquqiy tengligini qaror toptirish; insонning mulkdan begonalashtirilishuviga barham berish;

-iqtisodiyotni o`ta markazlashtirishdan, monopolizmdan, davlatning xo`jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechish;

-fuqarolarning mehnat qilish, dam olish, ishsiz bo`lib qolganda ijtimoiy muhofaza qilinish huquqlarini amalga oshirish; ish haqi, pensiyalar va nafaqalarning kafolatlangan eng kam miqdorini joriy qilish;

-ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo`l qo`ymaslik; Orol bo`yidagi ekologik sharoitni sog`lomlashtirish borasida samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish va h.k.

Ijtimoiy va ma`naviy sohada belgilangan dasturiy vazifalar ko`lami va ahamiyati ham tarixiy davr qo`ygan talablarga, O`zbekistonning mavjud shart-sharoitlari va mustaqil barqaror taraqqiyoti maqsadlariga mos edi. Ularni ham qisqacha keltirib o`tamiz:

-insonparvarlik g`oyalariga sodiqlikni yuzaga chiqarish uchun “O`zbekistonning kundalik hayotida inson huquqlarining umumiyligi deklaratsiyasida mustahkamlangan me`yorlarni izchillik bilan, og`ishmay qaror toptirish;”

-ma`naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, madaniy merosni asrab-avaylash, “O`zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo`lgan san`at asarlarini izlab topish va O`zbekistonga qaytarish;”

-madaniy merosdan, zamonaviy adabiyot va san`atdan xalqni bahramand etish, ularni ko`paytirish; o`zbek tilini rivojlantirib, uning davlat maqomini izchil va to`liq ro`yobga chiqarish; respublikada yashovchi xalqlarning madaniyati va tiliga hurmat bilan munosabatda bo`lish;

- hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini ta`minlash (ushbu vazifani amalga oshirish bilan bog`liq bo`lgan muammolarni hal qilishda davlat zarur yordam berishi ham belgilangan);

- ijtimoiyadolat qoidalarini ro`yobga chiqarish maqsadida aholi nochor qatlamlarining ijtimoiy muhofazaga bo`lgan kafolatli huquqlarini ta`minlash;

- sifatli tibbiy xizmatni, odamlarning umrini uzaytirish bo`yicha samarali chora-tadbirlarni joriy qilish va aholiga yuqori malakali tibbiy yordam olish shakllarini erkin tanlash imkoniyatlarini yaratish;
- umumiy va kasbiy ta`lim olishda, tegishli maxsus tayyorgarlikni o`tishda, malaka oshirishda barchaga teng huquq berish, yangi demokratik ta`lim kontseptsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- odamlarga ijod qilish, iste`dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish, intellektual mulkni himoya qilish.¹

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tinchligi va millatlararo totuvlikni ta`minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni qaror toptirish lozimligiga alohida urg`u beradi, -Prezident. U davlatni katta bir oilaga qiyoslaydi. Oilada o`zaro hurmat va tartib bo`lmasa, barcha a`zolari o`z burchlarini ado etmasa, bir-biriga mehr-oqibat ko`rsatmasa, bu oilaning turmushi munosib bo`lmaydi.

“Har bir insonning, ayniqsa, endigana hayotga qadam qo`yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o`rtaga qo`yilgan maqsadlarga erishish o`zlariga bog`liq ekanligani, ya`ni bu narsa ularning sobitqadam g`ayrat-shijoatiga, to`la-to`kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligaga bog`liq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.”²

Islom Karimov faqat ichki siyosatning, mamlakatimizda o`tkaziladigan islohotlarning nazariy va amaliy kontseptsiyasini yaratish bilan cheklanib qolmadı. U mustaqil O`zbekiston davlatining tashqi siyosati, aloqalari qanday bo`lishi to`g`risida ham chuqur mushohada yuritdi. Zero, mamlakatimizdagи islohotlarning muvaffaqiyati dunyo hamjamiyati bizni to`g`ri tushunib, siyosiy jihatdan qo`llab-quvvatlashiga, mustahkam oyoqqa turib olishimizda amaliy yordam ko`rsatishiga, savdo munosabatlarini o`rnatishiga, kreditlar berishiga ham bog`liq edi. Ularning munosabati esa, birinchi galda, bizning tashqi siyosat borasidagi doktrinamizga, qo`llayotgan printsiplarimizga, xalqaro huquq me`yorlariga qay da-rajada amal

¹Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Т.1.- Т.: Ўзбекистон, 1996. -Б. 47.

²Каримов. И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура.Т.1.- Т.: Ўзбекистон, 1996.-Б. 49.

qilishimizga bog`liq bo`lib, fundamental xalqaro konventsiyalar, kelishuv va bitimlarga nisbatan qanday amaliy munosabatda ekanligimizdan kelib chiqar edi.

Ma`lumki, hech bir mamlakat, hech bir xalq boshqalardan ajralib, o`z qobig`iga oralib, jahondan ajralib yashay olmaydi. Qo`ni-qo`snilari, uzoq-yaqin mamlakatlar bilan savdo-sotiq qiladi, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, diplomatik aloqalar o`rnatadi. Ikki yoki bir necha davlat o`zaro yaqin hamkorlik, hamdo`stlik, hatto ittifoq to`g`risida sharhnomalar tuzishi yoki ba`zi davlatlar o`zaro faqat diplomatik aloqalar bilan cheklanishi mumkin. Davlatlararo munosabatlarning rivojlanish jarayonida ularni tartibga soluvchi har xil konventsiyalar, bitimlar, kelishuvlar, deklaratsiyalar, xalqaro huquq me`yorlari majmui vujudga kelgan. Muayyan davlatning xalqaro aloqalari shaklining rang-barangligi, intensivligi, mazmuni uning tashqi va ichki siyosatiga bog`liq. Aslida tashqi siyosat ichki siyosatning davomidir. Ichki siyosat qanchalik xalqparvar, adolatli, erkin va taraqqiyiparvar bo`lsa, tashqi siyosat ham shunchalik tinchliksevar, teng huquqlikka, hamkorlikka, ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan, vaziyatga moslashuvchan va erkin bo`ladi. Ichki siyosat ijtimoiy zo`ravonlikka asoslansa, tashqi siyosat ham tajovuzkor bo`ladi va h.k.

O`zbekistonning tashqi siyosati ichki siyosatning davomi sifatida mustaqillikka erishganimizdan boshlab mamlakatimiz xalqi manfaatlarini xalqaro munosabatlarda ifodalashga, himoya qilishga qaratildi. O`zbekiston tashqi siyosatining negiziga 6 ta tamoyil qo`yildi, ular xalqaro huquq me`yorlariga, mustaqil taraqqiyotimiz maqsadlariga to`la mos keladi. Bu tamoyillarning birinchisini Islom Karimov ifodasida keltiramiz, qolganlarining esa mazmunini bayon qilamiz.

Birinchisi. “O`zining milliy-davlat manfaatlari ustun bo`lgani holda o`zaro manfaatlarni har tomonlama xisobga olish. Bizning mustaqil davlatimiz biron-bir buyuk davlatning ta`sir doirasiga tushib qolish niyatida emas. O`zbekiston yana kimgadir bo`ysunish uchun mustaqil bo`lgani yo`q.”¹

¹Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иктисад, сиёсат, мағкура. Т. 1.-Т.: Ўзбекистон, 1996.-Б. 51.

Ikkinchisi. O`zaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlar ustun qo`yiladi, tinchlik va xavfsizlik uchun kurash olib boriladi. Tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga O`zbekiston kirmaydi.

Inson huquqlari, xujum qilmaslik, nizoli masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlataman deb tahdid qilmaslik to`g`risidagi xalqaro hujjatlar tan olinib, ularga riousha qilinadi.

Uchinchisi. Boshqa mamlakatlar bilan aloqalar, tashqi siyosat teng huquqlilik va o`zaro manfaatdorlik, ularning ichki ishlariga aralashmaslik asosida olib boriladi.

To`rtinchisi. Ochiq-oydinlik tamoyili asosida, mafkuraviy qarashlaridan qati nazar, barcha tinchliksevar davlatlar bilan aloqalar o`rnatishga harakat qilinadi.

Beshinchisi. Tashqi aloqalarda milliy qonunlardan xalqaro huquq me`yorlarining ustunligi tan olinadi.

Oltinchisi. Bir-biriga to`la ishonish tamoyili asosida ham ikki tomonlama, ham ko`p tomonlama aloqalar o`rnatish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni rivojlantirishga harakat qilinadi.

Ushbu tamoyillar shunchaki e`lon qilinmadi, balki O`zbekiston tashqi faoliyatining asosini tashkil etdi. “O`zbekiston o`zining tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda yuqorida aytib o`tilgan printsiplarga qat`iy riousha qiladi, ularni boyitib va kengaytirib borib, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo`nalishlarini qatiyat va izchillik bilan turmushga tatbiq etadi.”¹

Mazkur tamoyillarga asosan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalardagi ustuvor yo`nalishlar belgilandi. Ular o`sha paytda aholi ta`minotining kechiktirib bo`lmaydigan ehtiyojlari, mamlakatning oziq-ovqat va iqtisodiy xavfsizligi, xalqaro hamjamiyatga va jahon iqtisodiyotiga integratsiya bo`lishi va boshqa dolzarb masalalar bilan bog`liq edi. ularning barchasi haqida alohida to`xtalib o`tmasdan, faqat ba`zilari to`g`risida fikr bildiramiz.

Eng avvalo, mamlakatning eksport imkoniyatlarini rivojlantirishga, korxonalarga xorijiy sheriklar bilan to`g`ridan-to`g`ri aloqalar o`rnatishda erkinlik

¹Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.-Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 52.

berishga, ularga eksport va import qilishda imtiyozlar, shuningdek, xorijiy investorlar uchun zarur huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa zarur shart-sharoitlar yaratish kabi masalalarga ustuvor ahamiyat berildi. Valyuta va xorijiy kreditlardan birinchi navbatda nimalarni xarid qilishda foydadanish zarurligi belgilandi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunlar yaratish, mavjud qonunchilikni takomillashtirish ham ustuvor vazifalar qatoriga kiritildi. Diplomatiya va tashqi aloqalarni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash, shu jumladan, ularni chet ellarda o`qitish zarurligi belgilandi. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan aloqalar o`rnatishga qaratilgan tashkiliy tadbirlarni o`tkazish, tashqi iqtisodiy faoliyatning infratuzilmalarini rivojlantirish uchun zarur transport, aloqa va kommunikatsiyalar tizimini qaror toptirish, chet ellarda savdo uylari va vakolatxonalar ochish belgilandi.

Bunday ustuvor yo`nalishlar orasida mamlakatimizdagи jismoniy va yuridik shaxslarning intellektual mulkini himoya qilish maqsadida o`zimizning patent-litsenziya tizimimizni yo`lga qo`yish, bu boradagi xalqaro bitimlarga qo`shilish, shuningdek, mahsulotlarni standartlash va sertifikatsiyalashning xalqaro tizimiga izchil o`tish ham borligi diqqatga sazovordir.

Islom Karimovning fikricha, yuqorida vazifalarni amalga oshirish “O`zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga keng ko`lamda uyg`unlashtirish uchun iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoit-larni yaratish imkonini beradi.”¹

Tashqi siyosatimiz tamoyillari va ustuvor yo`nalishlarini tahlil qilar ekanmiz, mazkur masalaga ham har tomonlama kompleks yondashilganining guvohi bo`lamiz. Unda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy, kadrlar tayyorlash, imtiyozlar berish va rag`batlantirish, xalqaro konvensiyalarga qo`shilish, xalqaro tashkilotlarga a`zo bo`lish, jismoniy va yuridik shaxslarning ma`naviy mulkini himoya qilish, tashqi aloqalar uchun infratuzilmalarni yaratish kabi muxim masalalarning birortasi chetda qolmagan.

¹Каримов.И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура.Т.1.-Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 60.

Alovida e'tirof etish lozimki, davlatimiz rahbari tomonidan islohotlarni o'tkazish bo'yicha belgilangan kontseptual yondashuv, dasturiy vazifalar shunchaki chaqiriq, ezgu istaklar, g'oyalar bayoni sifatida qolib ketmadi. Ular izchillik bilan hayotga tatbiq etildi, amalga oshirildi. Ularni bajarish davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy maqsadiga, faoliyatining mazmuniga aylandi. Butun jamiyat a'zolari, jamoat tashkilotlari bu g'oyalar atrofida jipslashdi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, islohotlar nazariyasini yaratish bilan bir vaqtida islohotlarning o'zi ham izchil olib borildi. Islohotlarning shakllanayotgan nazariyasi, sobitqadamlik va izchillik bilan o'tkazilayotgan amaliyoti bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu islohotlarning ham nazariyasi, ham amaliyoti uchun foydali bo'ldi, ularga hayotning, zamonning talablariga vaqtida moslashish, xato yo'ldan ketib qolishdan saqlanish, takomillashib borish, rivojlanish imkonini berdi.

Mustaqillikning dastlabki oylari va ikki yilda mamlakatimizda tub islohotlar o'tkazish va taraqqiyot yo'li nazariyasini yaratishdagi izlanishlarida Islom Karimov, avvalo, O'zbekiston dagi shart-sharoitlarning xususiyatlarini aniqlab, ularni qisqa, ammo chuqur tahlil qilganini, aynan shu asosda birinchi galdeg'i dasturiy vazifalar belgilaganini, ularni samarali amalga oshirish uchun esa islohotlar o'tkazishning xususiyatlari, falsafasi va metodologiyasi qanday bo'lishi lozimligini aniqlaganini qo'ramiz. Boshqacha aytganda, muallif tafakkuri, ijodiy faoliyati ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar, omillar tahlilidan tub islohotlarni qanday boshlashning tamoyillarini, nazariy kontseptsiyasini belgilashga, kontseptsiyadan islohotlar o'tkazishning amaliyotiga - aniq dasturlar va ustuvor yo'nalishlarni belgilashga, amaliyotning dastlabki natijalari tahlilidan islohotlar falsafasi va metodologiyasini takomillashtirishga qarab boradi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov yaratgan islohotlar nazariyasi avval-boshidanoq yaxlit mushtarak tizim edi. U teran ilmiy asoslanganligi va kompleks xarakteri bilan ajralib turadi. Muayyan sohadagi islohotlar boshqa sohalardagi islohotlar bilan chambarchas bog'liq holda, bir-birini to'ldirib, juda ilgarilab ketmasdan yoki ortda o'zilib qolmasdan olib borildi. Hech bir sohadagi islohotlar tavakkalchilik yoki tasodifiy ravishda kechmadi, balki aniq

iqtisodiy va ijtimoiy mo'ljallarni, ko'rsatkichlarni muayyan muddatlarda egallahsga qaratildi. Barcha sohadagi islohotlar muayyan ijtimoiy guruhning korporativ manfaatlarini ko'zlab emas, balki inson va butun jamiyat manfaatlarini ko'zlab o'tkazildi. Boshqacha aytganda, islohotlarning ijtimoiy mazmunini insonparvarlik tashkil etdi. O'zbekistonning istiqlol va taraqqiyot yo'li nazariyasini yaratishda davlatimizning birinchi rahbari xalqimizning o'ziga xos turmush tarzini, respublikamizdagi shart-sharoitlar va xususiyatlarni, an'ana va urfatlarni hamda jahondagi ijobiy tajribalarni hisobga oldi.

II.2.§. Bozor iqtisodiyotiga o`tishning ma`naviy-ma`rifiy asoslar- tadbirkor ma`naviyati

O`zbekiston bugungi kunda Osiyo, Evropa, Janubiy Sharqiy Evropadagi qator mamlakatlar bilan har tamonlama aloqalarni teng huquqlar asosida davom ettirmoqda. Bu davlatlar bilan aloqa qilishda turizmni rivojlantirish orqali ham mamlakat iqtisodiga chet el valyutasini kirib kelishiga alohida e`tibor berilmoqda. Turizmning rivojlantirish orqali mamlakatimiz madaniy-ma`naviy boyliklarini qayta jonlanishiga erishilmoqda.

Mamlakatimiz uzoq yillar davomida bir qator mamlakatlar bilan yaqin do`s, qo`ni-qo``jni sifatida hayot kechirmoqda. MDH davlatlari o`rtasida sovet davrida shakllangan iqtisodiy aloqalar mustaqillikdan so`ng yangi ko`rinishida qayta tiklandi. Respublika tabiiy boyliklarini qayta ishlashda Rossianing “Gazprom”, “Lukoyl” kompaniyalari, Qozog`iston tamonidan tashkil etilgan qo`shma korxonalar va boshqa MDH davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar O`zbekiston iqtisodiga o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatmoqda.

O`zbekiston o`zining tashqi savdosi, iqtisodida importdan ko`ra, eksport salohiyatini oshirishga intilmoqda. Eksportda xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatdan tayyor mahsulotlar etkazib beruvchi mamlakatga o`tish yo`lini tutmoqda.

“... davlatimiz tashqi siyosatining ma`no-mazmuni va maqsadi bitta-u ham bo`lsa, O`zbekiston manfaati va yana bir bor O`zbekiston manfaatidir”, - deganda I.Karimov istiqlol tufayli bemalol o`z milliy davlat manfaatlarini himoya qilib gapirgandi. Istiqlolgina bizga ro`yi-rost o`z mamlakatimiz nomidan gapirish imokinini berdi.

Mamlakatimiz o`zining ko`p asrlik davlatchilikni shakllantirish va rivojlantirish tarixiga egadir. Uning davlatchilikni vujudga keltirish tajribalari mustaqillikni mustahkamlashimizga o`zining ijobiy ta`sirni o`tkazib kelmoqda. Ayniqsa, o`zbek davlatchiligi tajribalarida ma`naviyatni rivojlantirishga qaratilgan siyosatning ahamiyati nihoyatda kattadir. Bundan tashqari, O`zbekistonda

iqtisodiyot va ma`naviyatni rivojlantirishda mamlakatimizda mavjud bo`lgan imkoniyatlar va resurslarni ishga tushirishga ham katta e`tibor berilmoqda. Ulardan qanchalik unumli foydalana olsak, iqtisodiyot va ma`naviyatni rivojlantirish borasida ham belgilangan maqsadga erishishimiz mumkin bo`ladi. O`zbekiston milliy mustaqilligining iqtisodiy asoslari to`g`risida so`z ketganda uning noyob tabiiy-xom ashyo imkoniyatlari haqida alohida aytib o`tish lozim. “O`zbekiston kelajagi buyuk davlat”, “O`zbekiston boy imkoniyatlar mamlakati” deyilganda xuddi shu imkoniyatlar ham nazarda tutilganini yoddan chiqarmasligimiz kerak.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “O`zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati”, “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “Yuksak ma`naviyat- engilmas kuch” nomli asarlarida bu haqda batafsil fikr yuritilib mustaqilligimizning iqtisodiy va ma`naviy-ma`rifiy asoslari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov haqli ravishda ta`kidlaganidek, O`zbekistonda tabiiy boyliklar, unumdar yer, katta iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma`naviy salohiyat mavjud. Eng muhimi, bu diyorda mustaqillikni asrab avaylash, mustahkamlashga, farovon hayotni o`z kuchi, o`z aql zakovati bilan barpo etishga qodir bo`lgan mehnatsevar va iste`dodli xalq yashaydi.¹

O`zbekistonda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2700 dan ziyod turli foydali qazilma konlari istiqbolli joylar aniqlangan. Ularning birgalikdagi qiymati mamlakatimiz va xorijiy mutaxassislar bahosiga ko`ra 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiqroq baholanayotir.

Har yili Respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda.

Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, tabiiy gaz, vol`fram, kaliy tuzlari, fosforitlar, kaolinlar bo`yicha O`zbekiston dunyoda yetakchi o`rinlardan birini egallaydi. Masalan, oltin zahiralari bo`yicha

¹Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.:Маънавият, 2008.-Б. 74-75.

O'zbekiston dunyoda 4-o'rinda, qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zahiralari bo'yicha 10-11-o'rinda, uran zahirasi bo'yicha 7-8-o'rinda turadi.

O'zbekiston noyob yoqilg'i – energetika resurslariga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Qidirib topilgan gaz zahiralari 2 trillion kub metrga yaqin, ko'mir zahiralari – 2 milliard tonnadan ortiq, 350 million tonnaga yaqin neft zahiralari mavjud. Demak mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda etarli darajada iqtisodiy manbalar mavjud. Shu manbalarni ishga tushirish inson salohiyatiga, ma'rifatiga bog'liq.

O'zbekistonning yirik sanoati 200 tarmoqni o'z ichiga oladi. 2000 dan ziyod zavod va fabrikalarda juda ko'p sohada qo'llaniladigan mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Respublika rivojlangan ichki transport va aloqa tizimiga egaligi bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, temir yo'llar tarmog'i uzunligi 7000 kmdan, avtomobil yo'llarining uzunligi 100 ming kilometrdan ortiq.

O'zbekiston qudratli ilmiy-ma'naviy potentsialga ham egadir. Respublika hududida Fanlar akademiyasi, 120 dan ziyod ilmiy tadqiqot institutlari, 65 dan ortiq Oliy o'quv yurtlari, 1200 dan ziyod akademik litsey va kasb-xunar kolleji, 4600 dan ortiq umumta'lim maktablari mavjud. Ilmiy xodimlar soni 100 mingdan ortiq bo'lib, ular orasida 200 dan ortiq akademik, 2500 ga yaqin fan doktorlari va professorlar, 15000 dan ziyod fan nomzodlari va dotsentlar bor. Binobarin, ushbu sohalarning hammasi aholini yuksak ma'naviyat sari etaklashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston rivojlangan, ko'p tarmoqli qishloq xojaligiga egadir.

O'zbekiston qimmatbaho xom-ashyo paxta etishtiradigan jahondagi eng yirik o'lklaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston bu ekinni etishtiradigan mamlakatlar orasida jahonda to'rtinchi o'rinni va paxta mahsulotlarini eksport qiladigan mamlakatlar ichida ikkinchi o'rinni egallaydi. Har yili mamlakat dalalarida, bog'larida 5 million tonnadan ortiq meva va sabzovotlar etishtiriladi.

O'zbekistonning mehnatsevar, iste'dodli va mehmondo'st xalqi Respublikaning chinakam boyligidir. Bu xalq do'ppisida suv tashib bo'lsa ham,

daraxt ko`kartiradi. O`zbek xalqi tom ma`noda bунyodkordir. Markaziy Osiyodagi barcha mehnat resurslarining 40% ga yaqini O`zbekiston hissasiga to`g`ri keladi.

Mustaqillik yillari O`zbekistonda barqarorlik va tinchlik, fuqarolar osoyishtaligi va millatlararo totuvlik saqlanib turibdi. Yaxshi qo`schnichilik va insonparvarlik o`zbeklar tabiatidagi tug`ma milliy va diniy fazilat hisoblanadi. Barcha zamonlarda O`zbekiston ko`p millatli davlat bo`lib kelgan va keljakda ham shunday davlat bo`lib qoladi. O`zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari bo`lgan 32 milliondan ortiq kishi yashaydi. Tinchlik, ijtimoiy totuvlik va adolat g`oyalari bizning ajdodlarimiz qoldirib ketgan ma`naviy meros hisoblanadi.

Jamiyatning ulkan boyligi, taraqqiyoti xalqning abadiy qadriyatları, urfatlariga, ajdodlar qoldirgan boy ma`naviy merosiga, ma`naviyatiga borib taqaladi. Chunonchi, otmishdagi beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan va hozirda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo`lyozma asarlar bizning beqiyos ma`naviy merosimiz sanaladiki, ular bugungi kunda mustaqilligimizning ma`naviy-ma`rifiy asosi sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz xududida mavjud bo`lgan va umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro`yhatiga kiritilgan to`rt mingdan ziyod moddiy-ma`naviy obidalar ham O`zbekiston milliy mustaqilligining ma`naviy asoslarini tashkil etadi.¹ Bu meros xalqimizni o`zligini anglashga xizmat qilib kelmoqda. Islom Abdug`anievich Karimov ta`kidlaganidek, bino qanchalar baland bo`lsa, uning poydevori ham shu qadar chuqur bo`ladi. Biz buyuk davlat qurishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, buning uchun zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma`naviy imkonlarimiz bilan bir qatorda tarixiy asosimiz, ya`niki 2700 yillik buyuk davlatchilik tariximiz, bundan 3000 yillar avval yaratilgan “Avesto”dek buyuk ma`naviy merosimiz kabi boy ma`naviy-ma`rifiy asoslarimiz mavjud.²

Biz bu merosni qanchalik chuqur o`zlashtirsak, shunchalik darajada mavjud ulkan imkoniyatlarimizdan foydalanish, vazminlik, bунyodkorlik, hamkorlik,

¹Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. –Б. 30.

²Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ, 1998. –Б.3,10,29.

millat va mamlakat manfaatlari yo`lida fidoiylik kabi fazilatlarimiz rivojlanib boradi. Mazkur fazilatlar murakkab o'tish davrimiz uchun katta amaliy ahamiyatga molik bo`lgan omil hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta`minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to`g'risida”¹ gi 2016 yil 5 oktyabrda qabul qilingan Farmoni, eng avvalo, xususiy mulkni xuquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo`naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda bozor islohotlarni amalga oshirishda aholini ish bilan ta`minlashni yaxshilash, uning farovonligini oshirish, qolaversa iqtisodiyotimizni rivojlantirishning eng muhim yo`nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko`rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag`batlantirish ustivor yo`nalishlardan biri sifatida belgilangan. Chunki, ayni shu sohalar biz uchun eng o'tkir bo`lib turgan aholi bandligi va uning daromadlarini oshirish muammolarini hal etishda, ichki bozorimizni iste'mol tovarlari bilan to`ldirishga salmoqli hissa qo'shishda o'ziga xos lakomativ vazifasini bajarib kelmoqda.² Bozor iqtisodiyoti va uning rivojlantirishning asosida tadbirkor va uning faoliyati yotadi. Zotan, bozor iqtisodiyotining talabi tadbirkorlik va ishbilarmonlikdir. Tadbirkor va tadbirkorlik nima? Tadbirkor ma`naviyati qanday bo`lishi kerakligi masalasi hech birimizni, xususan unga intilayotgan bugungi yoshlarimizni befarq qoldirmasligi lozim.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик фаолиятининг жадал ривожланишини таъминлашга, хусусий мулкни ҳар томонлама химоя қилишга ва ишбilarmonlik muhitini sifat jihatididan яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Farmoni. 2016 йил 5 oktyabr.

²Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ. 1998.-Б. 3,10,29.

Tadbirkor - bu dadil, muhim va murakkab maqsadlarni royobga chiqarish uchun jazm etib, yangi g`oyalarni amalga oshirish bilan bog`liq bo`lgan, butun ma`suliyatni o`z zimmasiga olib tavakkal ish yurituvchi shaxsdir.

Tadbirkorlik esa - bu mulkchilik sub`ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunlar doirasida ishlab chiqarishning biron-bir sohasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat yuritishdir. Soddaroq qilib aytganda tadbirkor jamiyat hayotida iqtisodiy sohaning tashkilotchisidir.

Islom Abdug`anievich Karimov ta`kidlaganidek, kishilarga kuch-g`ayrat bilan birga, bilim va tajribasi, aql-idroki, kasb malakasi etarli bo`lgan, qonunlarni, o`z haq-huquqlari va majburiyatlarini yaxshi bilgan, ya`ni ma`naviyati yuksak odamgina tadbirkorlik yoki fermerlik bilan shug`ullanishi, o`z xususiy ishini oqilonqa va samarali tashkil etishi mumkin.¹

Ilm va insof, riyozat va farosat, halollik va to`g`rilik, faollik va ishning ko`zini bilish, tejamkorik va boshqalar bugungi kun tadbirkorlarining ma`naviy fazilatlari bo`lib qolmog`i lozim. Tadbirkorning bosh fazilati- farosat, aql-zakovat bilan ish yuritishdir. Farosat, avvalo, o`zini anglash, o`z avholini, imkoniyatlarini to`g`ri idrok etishdir. Ikkinchidan, o`zgani tushunish, o`zgalarning ehtiyoji, hoxishi, imkon haqida to`g`ri tasavvur hosil qila bilishdir.

Ma`lumki manfaatlar to`qnashuvi, raqobat bozor iqtisodiyoti uchun xos narsa. Raqobatni biron-bir sub`ektning ikkinchi sub`ektni sindirishi ma`nosida tushunishimiz kerak emas. Raqobat deganda bir-biridan sifatliroq, xaridorgirroq, o`zgalar molidan arzonroq, inson ehtiyojlariga yaroqliroq buyum, mahsulot ishlab chiqarish orqali bozorda oldingi o`rnlarni egallashga intilishni tushunishimiz lozim. Bu raqobatning ma`naviy jihatidir. Raqobatda yutib chiqmoq uchun yangi texnologiyalar, unumli ish usullarini izlash yo`lidan borilsa, u jamiyat, insonlar farovonligi va shaxs kamoloti uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kun tadbirkori quyidagi yuksak ma`naviylik qirralariga ega bo`lishi zarur:

¹Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. -Т.: Маънавият. 2008.-Б. 68.

- Ma`naviy pok, ma`rifatli bo`lishi kerak;
- Vatan oldidagi burchini to`g`ri anglashi ;
- Halol va xaromni ajrata bilishi, xaromdan xazar qilishi;
- Ma`rifatli, dunyoqarashi keng qamrovli, bir yoqlamatilikdan holi bo`lishi;
- O`zi boshlagan ishga qat`iy ishongan bo`lishi, aniq maqsadni o`z oldiga qo`ygan va uning natijalarini aniq tasavvur eta bilgan bo`lishi;
- Yo`` qo`ygan o`z xatolarini tan ola bilishi va uni o`z vaqtida to`g`rilashga intilishi, tavakkalchasiga ham ish yuritishi va unga bora bilishi;
- Farosatli, insofli, mehnatsevar bo`lishi;
- Dunyoviy bilimlarga va o`z dunyoqarashiga ega bo`lishi;
- O`z sohasiga oid qonun va qarorlarni mukammal bilishi va ularga qat`iy amal qilishi;
- Boylikka, shaxsiyatparastlikka, manmanlikka berilmasligi, kamtar, olivjanob, sofdil, odob-axloqli bo`lishi;
- Xorijiy tillarni bilishi;
- Adolatli, mard, qat`iyyatli, sabr-toqatli, xozirjavob va boshqa fazilatlarga ega bo`lish.¹

Jamiyat va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi kishilar farovonligining oshishida tadbirkorlik muhim omil ekan, demak tadbirkorning ma`naviyati haqida ham qayg`urish lozim bo`ladi. Chunki, bu muammolarni yuksak ma`naviyat soxibi bo`lgan tadbirkorlar hal qiladilar. Ular: “Shu davlat va shu mamlakat menga nima berdi?” deb emas, balki “Men mamlakatga, kishilarga nima berdim, ularga qanday yaxshilik qildim, qanday foydam tegdi?” degan ma`naviylik asosida ish tutadilar. Yaratuvchanlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ishlari bilan shug`ullanadilar.²

Ijtimoiy yuksalish, taraqqiyotning amalga oshishida ma`naviyatning roli katta. Ma`naviyat-ma`rifatsizlik molparastlikni, shafqatsizlikni, mensimaslik va boshqa illatlarni keltirib chiqaradi, mehr-oqibatni, sahovatni yo`qotadi. Ma`naviy qashshoqlik moddiy kambag`allikdan bir necha barobar og`irroqdir. Ma`naviyat

¹Отамуротов С.О., Хусанов С., Раматов Ж. Маънавият асослари. -Т.: 2002.-Б. 59.

² Шарифхўжаев М., Давронов З. Маънавият асослари. -Т.2005.-Б. 105.

borasidagi kamchiliklar, nuqsonlar moddiy turmush etishmovchiliklari kabi tezda ko`zga tashlanmasada, sezilmasdan yig`ilib borib og`ir oqibatga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda yana shu narsa aniqlandiki, moddiy farovonlikni ko`tarilishi, yaxshilanishi avtomatik tarzda boy ma`naviy madaniyatga olib kelmas ekan.

Ma`naviy qashshoqlik esa insonning parokandalikka olib keladi. U esa so`zsiz iqtisodiyotga uning barqaror o`sishiga katta ta`sir ko`rsatadi.

Ma`naviyat, kishilarning ma`naviy faoliyati o`zida madaniy-ma`rifiy, mafkuraviy, diniy, axloqiy, estetik, huquqiy, ilm-fan yutuqlari, kishilarning axloqiy salohiyati, dunyoqarashi, g`oyasi, ruxiy kechinmalari, tasavvurlari, qobiliyati, irodasi, e`tiqodi, tarbiya va boshqa ma`naviy istaklar, maqsadlar ehtiyojlarni o`z ichiga oladi.

Sharqda doimo ma`naviyatga alohida e`tibor berilgan. Ma`naviyatli odamlarning e`tiqodi butun, iymoni toza, ruhi pok bo`ladi. Ular savobni gunohdan, diyonatni xiyonatdan,adolatni razolatdan ajrata oladigan, insofli, oqibatli, saxovatli, muruvvatli kishilar bo`lganini tarixdan bilamiz.

Xalqimiz «pul - qo`lning kiri», deb bejiz aytmagan. Moddiy boylik o`tkinchi, uni tejab-tergab sarf qilmasa, asramasa, qo`ldan boy berish oson. Ma`naviy boylik esa bebaho va tuganmas, uni birovga bergen bilan kamaymaydi.

Iqtisodiy madaniyatni shakllanishida ma`naviyatning ta`siri juda katta.

Xullas, mustaqil O`zbekiston tanlab olgan bozor iqtisodiyoti yo`li shuning uchun ham istiqbollikki, u har bir kishidan o`ta tadbirkorlikni, hozirjavoblikni, tejamkorlikni, uddaburonlikni, vaqtি-soati kelganda sabr-toqatlilikni, sovuqqonlikni, har bir vaziyatda ishning ko`zini bilishni, muomalada nihoyatda ehtiyyotkorlikni, har bir so`zning shakli va mazmunini ajratishni va farq qilishni va boshqalarni talab etadi.

Bu xislat va fazilatlar o`zbek xalqida azaldan mavjud. Afsuski, ularning ko`pchiligi turli sabablar ta`sirida kishilarimizning yodidan chiqib, hayolidan ozmi-ko`pmi ko`tarilgan, yoki mustabid tuzum va uning mafkurasiga yot qadriyatlar sifatida kishilar hayot tarzidan siqib chiqarilgan. Endi ular tiklanishi va

hayotimizda o'zlariga xos o'rinni egallashi kerak. Bozor iqtisodiyoti – demakki zamon talabi, mustaqillik qonuni. Mamlakatimizda kishilarning, ayniqsa yoshlarning tadbirkorlik ishi bilan shug'ullanishlarida o'z salohiyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun ularga birinchi galda teng imkoniyat va erkinlik muhiti, ham qonuniy, ham amaliy shart-sharoitlar yaratib berilganligi quvonchlidir. U qonun bilan mustahkamlangan. Vazifa ana shu qonun doirasida tadbirkorlikni har tomonlama rivojlantirib, O'zbekistonni jahoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rinni olishiga olib chiqishdir. Shuning uchun ham yoshlar bizning, mamlakatimizning kelajagi deymiz. Zotan buyuk kelajak ma'nan yuksak, ma'rifatli yoshlarimiz qo'lidadir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida ko'rganimizdek juda katta tabiiy boyliklar zahirasi mavjudligi, qudratli sanoat bazasi, ilmiy va intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlar, davlat suvereniteti yangi jamiyat barpo etish, O'zbekistonni rivojlangan, gullab yashnayotgan davlatga aylantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy asos bo'lib qoladi.

XULOSA

Jamiyat hayotining bugungi kunini va uning kelajagini ma`naviy va moddiy hayot uyg`unligisiz tasavvur etib bo`lmaydi, bu ikki omil qachonki uyg`unlashsa, shundagina jamiyatda yuksalish, milliy –ma`naviy tiklanish jarayonida o`sish va o`zgarishlar sodir bo`ladi. Jamiyatning ma`naviy hayotini yuksaltirishda, milliy-ma`naviy tiklanish jarayonida iqtisodiyotning, jumladan, taraqqiyotning “O’zbek modeli”ni o`rni katta bo`lganligi uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridan oq unga katta e`tibor berib kelindi.

Taraqqiyotning “O’zbek modeli” ma`naviy tiklanish jarayonida tutgan roli haqida O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug`anievich Karimov “Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch” asarida shunday fikrlarni bildiradi: “Mustaqillik biz uchun nafaqat iqtisodiy, balki beqiyos ma`naviy imkoniyatlar manbai ekanini anglab, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini aynan shu asosda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berdik”. Ma`naviy va iqtisodiy tiklanish jarayonida taraqqiyotning o`ziga xos bo`lgan “O’zbek modeli” bilan chambarchas bog`liq bo`lib, ular bir-birlarini inkor etmaydi, o`zaro bog`lanib bir-birlarini to`dirib turadi. Ma`naviy va iqtisodiy tiklanish jarayonidagi bunday bog`liqlik ahamiyati katta ekanligini I.A.Karimovning quyidagi fikrlaridan bilib olsak bo`ladi: “Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o`z hayotini aynan ana shunday dialektik bog`liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobjiy natijalarga erisha oladi”.

Jahon tajribalaridan kelib chiqqan xolda ma`naviy va iqtisodiy tiklanish yo`lida bunday bog`liqlikn va aloqadorlikni kuchaytirish doimo davlatimizning diqqat markazida turibdi. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz iqtisodiy hayotini yuksaltirish maqsadida bozor iqtisodiyoti munosabatlarini joriy etilishi tufayli fuqarolarimizning tafakkuri va dunyoqarashida katta o`zgarishlar paydo bo`ldi. Mamlakatimizda mulkdorlar sinfi shakllanib, tadbirkorlik va kichik biznes uchun imkoniyatlar yaratib berildi.

O'zbekiston taraqqiyotining maqsadi esa jamiyatda ijtimoiyadolatsizlik xukm surmaydigan, barcha fuqarolarning farovon hayotiga erishishidan iboratdir. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning evalyutsion asosda, bosqichma-bosqich o'tish yo'lini tanladi. Buning o'ziga xos sabablari bor, albatta. O'zbekistonda mavjud bo'lган ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, respublikadagi odamlar sonining ko'pligi, ularning turmush darajasining pastligi va boshqa shunga o'xshash omillar bozor munosabatlariga asta-sekinlik bilan, ya'ni "ijtimoiy larzalarsiz" o'tishni taqozo etadi. Zero, har bir yangilik birdaniga amalga oshmaydi. Shoshilmasdan, puxta o'ylab qilingan ish katta muvaffaqiyat keltirishi xalqimiz hayotida o'z isbotining topgan haqiqat.

Bozor munosabatlariga o'tish yo'li bekorga tanlangani yo'q. O'zbekistonning har tamonlama qulay jo'g'rofiy siyosiy mavqeい, O'rta Osiyo mintaqasida azaldan o'z o'rniga ega ekanligi, boy tabiiy resurslarga, an'anaviy ishlab chiqarish usuli va mehnatni tashkil etish shakllari mavjudligi uning birinchi sharti bo'lsa, har yili o'sib borayotgan aholisining soni va mehnatga yaroqli qismi butun aholini yarmiga yaqinini tashkil etishi buning ikkinchi sharti. Aholining an'anaviy yashash joylariga bog'langanligi aksariyat respublika aholisiga xos bo'lib, bu hol mehnat bozorini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining milliy tarkibi ham o'ziga xosdir. O'z yurtiga, yashab turgan joyiga intilish, milliy qadriyatlarini e'zozlab yashash O'zbekiston aholisining 70% dan ortiq qismini tashkil etgan o'zbeklarga xos fazilat bo'lib, bu iqtisodga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi, albatta. Ana shu xususiyatlar hisobga olinib, O'zbekiston o'zining bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanladiki, uning bu yo'li o'ziga xos, hech bir mamlakat andozasidan ko'chirib olinmagan, faqat o'zigagina mos keladigan "O'zbek modeli" ning alohida jihatlaridir.

Bozor munosabatlariga o'tish boshlang'ich pallasida bu jarayon oson kechmadi. Ishlab chiqarish tarmoqlaridan o'zilishlar, kunlik ehtiyoj mollarining taqchilligi muommolarning yanada kuchayishiga olib keldi. Ushbu murakkab sharoit xalqdan metin iroda, sabr-bardosh va fidokorona mehnatni talab qildi va respublika xalqi buning uddasidan chiqa oldi. Qolaversa mamlakatni boshqarib

turgan rahbariyatning uzoqni ko'zlab olib borgan izchil, adolatli siyosati ham O'zbekistonni bozor iqtisodiyotining o'tish davri qiyinchiliklarini muvaffaqiyatlidir. Ortida qoldirishiga imkon bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan yangi jamiyatning iqtisodiy poydevorini yaratish falsafasi va tub islohotlar strategiyasining negizida besh muhim tamoyil yotadiki, yosh davlat o'ziga xos rivojlanishining milliy modeli va o'tish davrining bosh siyosati ana shularga asoslanadi.

Ularning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:¹

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan bus-butun holi etish. Iqtisod siyosatdan ustivor bo'lishi, uning ichki mohiyatini tashkil etishi kerak.

Ikkinchidan, murakkab o'tish davrida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. U xalq manfaatlari yo'lida islohot jarayonlarida tashabbus ko'rsatish, iqtisodiy rivojlanishning etakchi ustivor yo'naliishlarini belgilash, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, mamalkatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqish va izchil amalga oshirishni o'z zimmasiga olishi kerak.

Uchinchidan, yangilanish va taraqqiyotning butun jarayoni huquqiy asosga qurilishi lozim. Iqtisodiy o'zgarishlar ular sinovidan o'tgan, amalga kuchga ega bo'lgan qonunlarga suyangandagina sezilarli natijalarga erishish va bu jarayonlarni orqaga qaytmasligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

To'rtinchidan, real demografik holatni, aholining turmush darajasini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotiga o'tish odamlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha oldindan tayyorlangan kuchli tadbirlar bilan qo'shib olib borilishi lozim. Faqatn kuchli ta'sirchan ijtimoiy himoya mexanizmi va ijtimoiy kafolatlar mavjud bo'lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash, bozor iqtisodiyotiga qarab dinamik ravishda siljib borishi mumkin.

Beshinchidan, yangi iqtisodiy bozor munosabatlarini shakllantirish vazminlik bilan, chuqur o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

¹Каримов И.А. Ватан саждагоҳ қаби мукаддасдир. Т.3.-Т.: Ўзбекистон. 1996.-Б. 177-178.

Tashqi iqtisodiy aloqalar ularning taraqqiyotini g`oyaviy asoslari Islom Karimovning shu sohadagi qarashlarida aks etgan. O`zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatning ustivor yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ respublikaning eksport salohiyatini mustahkamlash va rivojlantirish, eksportga yo`naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish, shuningdek, importning o`rnini bosadigan ishlab chiqarishni jadal suratlarda kengaytirish;
- ✓ eksport tarkibini xom ashyo resurslaridan O`zbekiston qulayroq shakllarga qishloq xo`jaligining qayta ishlangan tayyor maxsulotlarini, engil sanoat va ko`p bilim talab qiladigan tarmoqlar buyumlarini eksport qilish tomon chuqur qayta o`zgartirishni amalga oshirish;
- ✓ boshqariladigan tashqi iqtisodiy faoliyatning qonuniy asoslarini yaratish;
- ✓ xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarga kirish bo`yicha tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish;
- ✓ tashqi iqtisodiy faoliyat tarmoqlari majmuini yaratish.

Shunday qilib, XXI asrga qadam qo`yib, nisbatan qisqa tarixiy davr mobaynida respublika mustaqillik g`oyalarini hayotga tadbiq etish asosida milliy davlatchilikni tiklashda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu muvaffaqiyatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ istiqlol va suverenitetni qo`lga kiritib, O`zbekiston o`z taqdirini o`zi mustaqil belgilash, barcha tabiiy mineral xom ashyo boyliklari, o`z mamlakatimizning manfaatlari va uning istiqboli yo`lida foydalanish huquqiga ega bo`ldi;
- ✓ sobiq ittifoqning ilgari mafkuralashtirilagn, mustabid, ma`muriy buyruqbozlik tizimiga barham berib, erkin bozor iqtisodi tamoyillariga asoslanushi demokratik davlatning konstitutsiyaviy va huquqiy negizlarini yaratishga muvaffaq bo`ldi;
- ✓ mamlakatning jahon hamjamiyatidagi manfaatlari, nufo`zi va mavqeining ortishiga muvofiq keluvchi tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarning mustaqil yo`lini shakllantirishga erishdi;

- ✓ jahon hamjamiyatining to'laqonli a'zsoi bo'lib va ko'p qirrali tashqil iqtisodiy faoliyat yuritib, O'zbekiston dunyo integratsion jarayoniga ishonch bilan yo'l ocha boshladi.

Bugun O'zbekiston bozor munosabatlari sharoitida dadil rivojlanayotgan mamlakat. Xalq xo'jaligining barcha sohalarida yirik o'zgarishlarga erishgan mamlakat. Olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati zamirida oddiy xalq manfaati yotibdi. Aholining asosiy qatlamini o'rta hol qatlam tashkil etadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bo'lgan bolalar, nafaqaxo'rlar, o'quvchi, talabalar, nogironlar, yolg'iz onalar va ko'p bolali oilalar doim davlatning himoyasida. "Davlat o'z fuqarolarini muhofaza qilishga qodir bo'lsagina davlat bo'ladi. Bu borada boshqacha yo'l yo'q" -deydi Islom Abdug'anievich Karimov.

Bugungi o'zbeklarning mehnatga bo'lgan munosabati tubdan o'zgargan. O'z mehnatining samarasidan bahramand xalq sifatida shijoatli mehnat bilan band. Qishloq va shaharlarmiz butunlay o'zgargan. Bugun O'zbekistonga dunyo ko'z tikkan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarining 4.4. bandida:

- ✓ Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish;
- ✓ aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni va aholining daromadlari bo'yicha farqlanishi darajasini yanada qisqartirish;
- ✓ byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarning hajmini inflyatsiya sur'atlariga nisbatan jadal miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;
- ✓ yangi ish o'rirlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining oqilona bandligini ta'minlash, mehnat bozori infrastrukturasing mutanosibligi va rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish;

- ✓ mehnatga qobiliyatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to`liq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish to`g`risida batafsil keltirib o`tilgan.¹

Tavsiya o`rnida quyidagilarni keltiramiz:

Milliy iqtisodiyotni taraqqiy ettirishning g`oyaviy asoslarini yaratishda quyidagilarga alohida e`tibor qaratish kerak bo`ladi.

- ✓ o`tish jarayonining huquqiy negizlarini shakllantirish, islohotlarning huquqi-qonunchilik asosini rivojlantirish va mustahkamlash;
- ✓ qishloq xo`jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish xisobiga ko`p ukladli iqtisodiyotning asoslarini yaratish,
- ✓ maxalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalari, uy-joy fondini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishni, ayrim engil sanoat, qurilish va transport korxonalarini aktsionerlashni amalga oshirish;
- ✓ xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qular shart-sharoitlar yaratish, xususiy mulkni himoya qilishning konstitutsion huquq va kafolatlarini ta`minlash. Qishloqda davlat xo`jaliklarini jamoa xo`jaliklari yoki mulkchilikning boshqa shakllari sifatida qayta tashkil etish, fermer-dehqon
- ✓ xo`jaliklarini, uncha katta bo`lmagan shirkatlar, pudrat va oilaviy ijara jamoalarini rivojlantirishning amalga oshirish yo`li bilan ishlab chiqarishning chinakam kooperativ shakllarini yaratish;
- ✓ bo`hronni bartaraf qilish, iqtisodiyotning barqaror faoliyat ko`rsatishiga erishish, xalq turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo`l qo`ymaslik uchun jadal, qat`iy, ayrim xolatlarda ommaga yoqmaydigan chora-tadbirlarni ko`rish.

O`zbekiston o`z oldiga yanada ulkan marralarni ko`zlab, dadil odimlamoqda.

¹Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида Фармони. -Т.: 2017. – URL: <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2> (очилган муддати 05.03.2017)

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar.

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли.
- Тошкент., Ўзбекистон, 1992.-128 б.
2. Каримов И.А. Юксак малакали мутахассислар – тараққиёт омили.
- Тошкент., Ўзбекистон, 1995. -23 б.
3. Каримов И.А Ўзбекистон иқтисодий ислоҳатларни чукурлаштириш йўлида.- Тошкент., Ўзбекистон, 1995.-266 б.
3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. -Тошкент., Ўзбекистон, 1996. -366 б.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёsat, мафкура. Т.1. - Тошкент., Ўзбекистон, 1996.-364 б.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Тошкент., Ўзбекистон, 1997. -324 б.
6. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. -Тошкент., Ўзбекистон, 1997. -384 б.
7. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. -Тошкент., Ўзбекистон, 1998. -429 б.
8. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни миллат килишга хизмат қилсин. -Тошкент., Ўзбекистон, 1998. -377 б.
9. Каримов И.А Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. -Тошкент., Ўзбекистон, 1999.-47 б.
- 10.Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси -Тошкент., Шарқ, 1999. -184 б.
- 11.Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. -Тошкент., Ўзбекистон, 2000. -525 б.
- 12.Каримов.И. А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.-Т.: Ўзбекистон 2000. -30 б.
- 13.Каримов И.А. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар рисоласига сўз боши. Т.9. - Тошкент., Ўзбекистон, 2001. 220-224 б.

- 14.Каримов. И.А.Ўзбекистон бозор муносабатларига ўтишининг ўзига хос йўли. -Тошкент., Ўзбекистон, 2003.-128 б.
- 15.Каримов И.А. Инсон, унинг ҳукуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т. 14. - Тошкент., Ўзбекистон, 2006.-276 б.
- 16.Каримов И.А. Юксак маънавият –енгилмас қуч. -Тошкент., Маънавият, 2008. -123 б.
- 17.Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. - Toshkent.,O'zbekiston, 2010. -144 b.
18. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent.,O'zbekiston, 2011. -300 b.
- 19.O'zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferentsianing ochilish marosimidagi nutqini oliy ta'lim muassasalarida o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -Toshkent., 2014.-17 b.
- 20.Karimov I.A.Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. -Toshkent., O'zbekiston, 2015. -302 b.
- 21.Karimov I.A.Ozodlik havosidan to'yib nafas olgan xalq o'z yo'lidan hech qachon qaytmaydi. -Toshkent.,O'zbekiston, 2016. -28 b.
- 22.Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Тошкент., Ўзбекистон, 2016. -56 б.
- 23.Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. -Тошкент., Ўзбекистон, 2017. -104 б.
- 24.Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва ҳалқ фаровонлигининг гарови. - Тошкент., Ўзбекистон, 2017. -48 б.
25. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. -Тошкент., Ўзбекистон, 2017. -488 б.

II. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va qonun osti xujjatlari.

1. Мирзиёев Ш.М. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони. **Манба:** «Халқ сўзи», 2017 й., 28 (6722)-сон; ЎР ҚҲТ, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. (1997 йил 29 августда қабул қилинган). Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент., Шарқ, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни (1997 йил 29 августда қабул қилинган). Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент., Шарқ, 1997.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январда қабул қилинган «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар фани бўйича таълим дастурларини яратиш ва республика таълим тизимига жорий этиш тўғрисида»ги Фармойиши://Маърифат, 2001 йил 20 январ.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 августда қабул қилинган «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги қарори//Халқ сўзи, 2006 йил 26 август.

III. Maxsus adabiyotlar.

1. Абдуллаев А. Маънавият ва иқтисодий тафаккур. – Тошкент, Маънавият, 1997.-84 б.
2. Дўстжонов Т., Мирҳамидов М., Ҳасанов С. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг долзарб муаммолари. Ўқув қўлланма–Т.: Иқтисод-молия.,2006.-596 б.
3. Йўлдошев Қ. Иқтисод илмий асослари. -Андижон., 1995.-58 б.
4. Йўлдошев Қ., Муфтойдинов К. Иқтисод илмий асослари. –Андижон., 1995.-78 б.
5. Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. –Т.: Шарқ, 1996.-56 б.
6. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. –Т.: Шарқ, 1999.-86 б.
7. Маҳмудов. Т. Мустақиллик ва маънавият.- Тошкент,Шарқ, 2001.-52 б.
8. Отамуротов С.О., Ҳусанов С., Раматов Ж. М аънавият асослари. - Тошкент, 2002.-212 б.
9. Отамуротов С. Маънавият асослари. –Т.: 2002.-212 б.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.-Тошкент.,2004.-655 б.
11. Қодиров А. Маънавиятининг иқтисодий тамойиллари. -Т.: Маънавият, 1999.-212 б.
12. Шарифхўжаев М. Маънавият асослари. -Т.: 2005.-127 б.
13. Шарифхўжаев М., Давронов З. Маънавият асослари. -Тошкент, 2005.-168 б.
14. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. -Т.: Маънавият, 1997.-125 б.
15. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. -Т.: Университет, 1998.-34 б.

IV. Даврий нашрлар.

1. Каримов. И.А. Инсон манфаатлари устиворлигини таъминлаш-барча ислоҳот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир. // Халқ сўзи. 2008. 9-февраль.
2. Каримов И.А. Соғлом она ва бола - мамлакатимиз таянчи. // Халқ сўзи. 2016 йил 13 феврал. №31. (6466).
3. Қодирова З.Р. Янгича иқтисодий тафаккур ва халқаро муносабатлар. // Халқаро муносабатлар. 2004; №2.

V. Интернет материаллари

1. uz.denemetr.com/docs/768/index-69157-1.html?pageq2
2. yel.tfi.uz/pdf/ozfuk_uzk.pdf
3. library.ziyonet.uz/uz/book/download/28727
4. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>
5. [el.tfi.uz/umk/.../Milliy%20g'oya%20bakalavr/2012~1.DOC.\(ochilgan
muddati:10.12.2016\)](http://el.tfi.uz/umk/.../Milliy%20g'oya%20bakalavr/2012~1.DOC.(ochilgan)
6. [www.tfi.uz/index.php/o'quv/1533-majmua-5/file.\(ochilgan
muddati:14.01.2017\)](http://www.tfi.uz/index.php/o'quv/1533-majmua-5/file.(ochilgan)
7. [tfi.jethost.uz/intranet/umk/milliygoya.pdf.\(ochilgan muddati:28.01.2017\)](http://tfi.jethost.uz/intranet/umk/milliygoya.pdf.(ochilgan muddati:28.01.2017))
8. [fikr.uz/blog/ta'lim_fan_taraqqiyoti/8374.html.\(ochilgan
muddati:11.02.2017\)](http://fikr.uz/blog/ta'lim_fan_taraqqiyoti/8374.html.(ochilgan)
9. [www.ziyonet.uz/uploads/books/3602/543cd17e5434b.rtf.\(ochilgan
muddati:25.05.2017\)](http://www.ziyonet.uz/uploads/books/3602/543cd17e5434b.rtf.(ochilgan)

ILOVA (TAYANCH SO`ZLARI)

№	O`ZBEKCHA	РУССКИЙ	ENGLISH
1	Ma'naviyat	духовность	spirituality
2	Milliy g'oya	национальная идея	National ideology
3	Madaniyat	культура	cultural
4	Yoshlar	молодежь	youth
5	Ta'lim	образование	of education
6	Innovatsion faoliyat	инновационная деятельность	Innovationion
7	Milliy ma'naviyat	Национальное Духовное	The national Spiritual
8	iqtisod	экономика	economy
9	iqtisodiy tafakkur	экономическое мышление	economic thought
10	ma'naviy tafakkur	духовная мысль	spiritual thought
11	O'zbek model	Узбекская модель	Uzbek model
12	Harakatlar strategiyasi	стратегия	strategy
13	iqtisodiy faoliyat	хозяйственная деятельность	economic activity
14	tashqi iqtisod	внешняя экономика	external economy
15	demokratik taraqqiyot	демократическое развитие	democratic Development
16	tadbirkor	бизнесмен	businessman
17	bozor iqtisodiyoti	рыночная экономика	market economy
18	jamoatchilik markazi	Общественный центр	Community Centers
19	Yuksak ma'naviyat	высокая духовность	high spirituality
20	Xalqaro munosabat	международные отношения	international Relations
21	ma'suliyat	ответственность	responsibility
22	Vatan ravnaqi	отчизна	the development of the motherland
23	ijtimoiy hamkorlik	социальное сотрудничество	social cooperation
24	rivojlanish	рост	growth
25	tamoyil	Принцип	The principle of
26	islohot	реформа	reform
27	bozor munosabatlari	рыночные отношения	market relations
28	fuqarolik jamiyati	гражданское общество	civil society

29	iqtisodiy bilim	экономические знания	economic Information
30	ehtiyoj	Необходимость	The need fo